

AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 4

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

April 2025

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
April 2025

Tashkent 2025

“Academic Journal of Educational Research (AJER)” international scientific journal, issue 1, page 1-52. April, 2025

"Academic Journal of Educational Research (AJER)" magazine publishes in the form of scientific articles the results of scientific research conducted by professors and teachers of higher education institutions and independent researchers in our Republic and International. Also, scientific articles of the employees who are working in the international and other scientific institutes, production organizations and enterprises of our Republic and conducting scientific research will be included in the magazine.

All articles were posted to the journal's electronic scientific base at www.ajeruz.com

Editorial

Chief editor
Technical editor

Arzikulov Zayniddin
Lutfiddinov Ziyodxon

Ilmiy tahririyat kengashi	
Myxamedov Gafurjon Isroilovich	O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Kimyo fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Eshchanov Baxodir Xudayberganovich	Fizika-matematika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tadjibaev Ikrom Uralbayevich	Fizika-matematika fanlari doktori, dotsent Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Fayzullaev Normurot Ibodullaevich	Texnika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc), professor Samarqand davlat universiteti
Abduraxmonov Ergashboy	Kimyo fan doktori, professor Samarqand davlat universiteti
Qurbanova Aypara Djoldasovna	Kimyo fanlari nomzodi, dotsent Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'roqov Sirojiddin Xudayberdiyevich	Biologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Samarqand davlat universiteti
Turayev Baxodir Xatamovich	Iqtisod fanlari doktori, professor Toshkent davlat transport universiteti
Negmatova Shaxzoda Shuxratovna	Falsafa fanlar doktori, professor O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
Abriyev Ro'ziqul Buronovich	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Samarqand davlat universiteti
Raxmonov Dustmurod Abdunazarovich	Falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent amaliy fanlar universiteti
Irzayev Bahrom Shaymamatovich	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Qatag'on qurbonlari davlat muzey
Usarov Jabbor Eshbekovich	Pedagogika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich	Pedagogika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Bunyamin Maftuh	Indonesian education university Prof. Dr, M.Pd., M.A. Vice Rector for Research, International Affairs, Partnership, and Business
Buxoriy Ahmad Muslim	Indonesian education university P.hD Director for Directorate of International Affairs
Xamrayev Abdurashid Jurakulovich	Tibbiyot fanlari doktori, professor Toshkent pediateriya tibbiyot instituti
Baykulov Azim Kenjayevich	Tibbiyot fanlar nomzodi, dotsent Samarqand Davlat tibbiyot unversiteti
Niyozov Xakim Bakoyevich	Veterinariya fanlari doktori, professor Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiet
Axmurzayev Shavkat Isakovich	Qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent davlat agrar universiteti

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITUVCHINING
PSIXOLOGIYASI

Sattarova Mehriniso Olim qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
sattorovsaidjon33@gmail.com

Nuraliyeva Sarvinoz Sobirjon qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
nuraliyevasarvinoz007@gmail.com

Iskandarova Ruxshona Sherali qizi
CHDPU Amaliy psixologiya 2-kurs 23/2-guruh talabasi
ruxshonaiskandarova862@gmail.com

Аннотация: Психологическое состояние учителей в современном образовании оказывает непосредственное влияние на их профессиональную деятельность и успеваемость учащихся. В данной статье исследуются основные проблемы психологии учителя, такие как стресс, эмоциональное выгорание, снижение мотивации, трудности создания психологической среды в классе, а также возможности поиска их решения с помощью современных психологических подходов (например, когнитивно-поведенческой терапии, развития жизнестойкости, среды обучения в сотрудничестве). В исследовании систематизированы причины проблем и факторы, влияющие на них, на основе статистики международных исследований, кейс-анализа и результатов опросов учителей. В заключение была подчеркнута необходимость совершенствования методических пособий, программ институциональной поддержки и государственной политики по повышению психологического потенциала учителей.

Ключевые слова: психология учителя, эмоциональное выгорание (выгорание), педагогический стресс, мотивационные стратегии, психологическое сопровождение, классная среда, профессиональное развитие.

Abstract: The psychological state of teachers in modern education has a direct impact on their professional activity and academic achievement of students. This article explores the main problems of teacher psychology, such as stress, emotional burnout, decreased motivation, difficulties in creating a psychological environment in the classroom, and the possibilities of finding solutions to them through modern psychological approaches (for example, cognitive-behavioral therapy, resilience development, collaborative learning environment). The research systematizes the causes of problems and the factors affecting them based on the statistics of international studies, case analysis, and the results of teachers' surveys. In conclusion, the need to improve methodological manuals, institutional support programs, and state policy to increase the psychological empowerment of teachers was emphasized.

Key words: *teacher psychology, emotional burning (burnout), pedagogical stress, motivational strategies, psychological support, classroom environment, professional development.*

Kirish.

O'qituvchi-ta'lim tizimining asosiy agenti bo'lib, uning psixologik salomatligi va kasbiy qobiliyatlari ta'lim sifatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir. 21-asrda global pedagogik talablar keskin o'zgarib, o'qituvchilardan nafaqat yuqori malakali, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvchan, kreativ va stressga chidamli bo'lishni talab qilmoqda. Biroq, ko'pgina mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, o'qituvchilar tizimli ravishda quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- Ish yukining ortishi va vaqt yetishmasligi natijasida kronik charchoq;
- Ota-onalar va ma'muriyat bilan murakkab munosabatlar tufayli emotsional taranglik;
- Zamonaviy talabalar avlodiga ta'sir ko'rsatish usullarini topishda psixologik tayyorgarlik yetishmasligi.

Bu muammolar nafaqat o'qituvchilarning shaxsiy farovonligiga, balki umumiy ta'lim ekotizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchi psixologiyasini tadqiq qilish va ularga moslashtirilgan psixologik yordam mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Muhim davlat vazifasini – “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlana boradi. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki bu kechiktirib bo'lmaz jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z

kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi. Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan toldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar "o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?" degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi. Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar. Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan, bular Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti, Toshkent shahar, viloyatlardagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir. Xalq ta'limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o'qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, o'qituvchi kadrlarni o'zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma'lumotini oshirishga da'vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband "Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o'rniga ishora qiladi, to'g'ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o'xshatishlar bilan asoslab beradi. Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsa-da, o'z qimmatini yo'qotgan emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko'rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin.

O'qituvchi psixologiyasini mustahkamlash-bu nafaqat individual, balki tizimli yondashuvni talab qiladi. Masalan, burnoutni kamaytirish uchun ish sharoitlarini yaxshilash (maoshni oshirish, ma'muriy yukni kamaytirish) bilan birga, ularning shaxsiy resurslarini aktivlashtirish muhim. Xuddi shunday, sinf muhitini yaxshilashda o'quvchilar bilan muloqotni osonlashtiruvchi psixologik jihozlar (o'yinlashtirish, dialogli o'qitish) samarali hisoblanadi. Biroq, buning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlashda psixologik modullarni kiritish va ularga doimiy malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish zarur.

Pedagogga qo'yiladigan asosiy, bosh va o'zgarmas talablar bolalarga bo'lgan mehr, pedagogik faoliyat, o'zi ishlaydigan soha bo'yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo'lish, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilgan xislatlarning birortasiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas. Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasa-da, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bu hamma xossalar tug'ma qobiliyat emas. Ular pedagogning muntazam mehnati, shuningdek, o'z ustida tinmay ishlashi natijasida egallanadi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi qaytarilmas va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan. Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bolishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishga intilishi kerak. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Jamiyatning muayyan tarixiy davrida, belgilangan vaqt va belgilangan ish joyiga xos bo'lgan pedagogning asosiy va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlari haqidagi masalani hal qilish birmuncha murakkabdir. Jamiyatda ro'y berayotgan yangi shart-sharoitlar, ta'lim va tarbiya sohasida yangi maqsad va vazifalarni qo'yadi. Ular o'z navbatida o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o'z vaqtida va aniqroq aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

O'qituvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o'zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo'lmog'i va bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog'i lozim. Ota-onalar o'qituvchining ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'i nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'qituvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira olishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

XULOSA.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot - kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar, talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati o'quvchilarni, talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma'rifat fidoyilari safida ko'rishdir. Har bir pedagogning o'z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat'iy amal qilishi uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir. Pedagog bir xil metodlarda dars o'tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o'qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

O'qituvchilarning psixologik salomatligi-ta'lim taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar samarali bo'lishi mumkin:

- O'qituvchilar uchun psixologik xizmatlar markazlari tarmog'ini yaratish;
- Pedagogik universitetlarda psixologik tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirish;
- Ish haqi va ijtimoiy statusni ko'tarish orqali motivatsiyani oshirish.
- Kelajakda o'qituvchilarning psixologik qobiliyatlarini baholashning mezonlarini ishlab chiqish va ularni ta'lim siyosatiga integratsiyalash tirishqoq tadqiqotlar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget, J. (1951). Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Elkonin, D. B. (1978). Psychology of Play. Moscow: Pedagogika.
4. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" Z.T.Nishanova, N.G.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-2018
5. "Rivojlanish psixologiyasi" fanidan ma'ruzalar matni Jo'rayev O'tkir Toshpo'latovich
6. "Umumiy psixologiya" G'oziyev.E "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 66-bet
8. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 137-bet

9. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarning boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
10. Sirojiddin Amangeldiyev Nurg'aliy o'g'li . Psixologik maslahat gipotezalarini shakllantirish. Central asian academic journal ISSN: 2181-2489 OF scientific research volume 1 I ISSUE 1 I 2021. <https://search.app/R78CQ7R1YR9Sg7PR6>

Qarshiboyeva Shaxzoda Akram qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
qarshiboyevashaxzoda@gmail.com

Nasriddinova Sabrina Isroilovna
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
nasriddinovasabrina902@gmail.com

Yo'ldashova Marjona Bahodir qizi
CHDPU Amaliy psixologiya 2-kurs talabasi
marjonayoldashova786@gmail.com

Annotasiya: Maqolada boshqaruvchilik qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, rahbarga xos xususiyatlar, adolatli rahbarga xos xususiyatlar, rahbar va liderning farqlari haqida fikr boradi, strategik fikrlash, qaror qabul qilish qobiliyati, jamoani boshqarish kommunikativ qobiliyat, muommolarni hal qilish qobiliyati moslashuvchanlik va kreativlik, tashkiliy qobiliyati. Samarali rahbarning mas'uliyatligi, ishoniligi va halolligi. Adolatli rahbarga xos xususiyatlar, tashabbuskor rahbar, intizomli rahbar va boshqalarni ilhomlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, psixologiya, moslashuvchanlik, kommunikativ, tashabbuskorlik, lider, strategik, kreativlik, qobiliyat, tashabbuskor

KIRISH:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarlik va boshqaruv masalalarida bir qator muhim fikrlarni bildirgan. U rahbarlarning siyosiy maqomi va mas'uliyatini oshirish, aholi muommolarini hal qilish uchun ularga yetarli vakolat va mablag' berish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, Prezident islohotlarni amalga oshirishda jamiyat bilan hamkorlik qilish muhimligini qayd etgan: "Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz".

U shuningdek, haqiqiy ahvolni ochiq-oydin gapirgan odam bizga do'st deb bilishni aytgan: "Haqiqiy ahvolni gapirgan odam bizga do'st"

Prezidentimiz rahbarlarag shunday fikrlar bilan ham yuzlanadi. "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysinishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlikka va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarni bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun rahbar etin tayinalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Hozirgi kunda ko'pgina insonlar o'z kasbiy faoliyatlarini hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy shakllanishning asosi deb tushunib, psixologik qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojlari mavjudligini tan olmoqdalar. O'z kasbininig bilimdoni bo'lish uchun nafaqat texnik fanlarni, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu esa har bir xodimdan psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqoza qiladi. Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o'zining bosiq va qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag'ritosh, jahldor yoki bosiq va hokozolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo'ladi. Ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tahskil qiladi. Inson psixikasi moddiy va ma'naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli aks etuvchi murakkab jarayon bo'lib u uzoq davom etgan fizsiologik rivoji uyg'unligining mahsuli hisoblanadi.

Rahbar o'z guruhida eng katta vakolat va e'tirofga ega bo'lgan, boshqa insonlarga rahbarlik qila oladigan shaxs sanaladi. Rahbar tayinlanmaydi, u shaxsiy fazilatlarini tufayli o'z nomzodini qo'yadi.

XX asr boshida amerikalik sotsiolog E.Bogardus rahbarda bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlarini sanab o'tdi: hazil tuyg'usi, muloyimlik, oldindan ko'rish qobiliyati, diqqatni jalb qilish qobiliyati, odamlarni rozi qilish qobiliyati, mas'iliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorlik va boshqalar.

Rahbarlik qobiliyati- bu tashkilot yoki tizimning belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda jarayonlarni samarali nazorat qilish va boshqarish imkoniyatidir. Bu tushuncha, ayniqsa, ta'lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning muvaffaqiyati rahbariyatning boshqaruv qobiliyati va tizimning boshqaruvchanligiga bog'liq. Samarali boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish uchun rahbarlarda quyidagi sifatlar rivojlangan bo'lishi lozim.

Kommunikativlik: Rahbar boshqalarni tinglay olish, va ularni dardini aks eta olish va o'z fikrini aniq yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Zamonaviy rahbar imiji va unga xos bo'lgan ijtimoiy siyosiy portretlar xususida so'z yuritilganda shaxsning iqtidorlari e'tiborga olinadi. Ta'lim tashkiloti rahbari boshqaruv jarayonini jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan moslashtirishi kasbiy faoliyat mazmunini oshiradi. Boshqaruv tizimiga mutaxassislarni tanlash hamda ularni saralashda e'tiqotlarni ustuvor deb baholansa hamda mazkur mezonga e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, zamon talabi asosida liderning ijtimoiy-siyosiy sohadagi boshqaruv qobiliyati dolzarb hisoblanadi. Respublikamizning bugungi kundagi rivojlanish bosqichi, ta'lim tizimini jahon hamjamiyatdagi o'rni va mavqiyeye

oshayotgan davrda lider nafaqat tashkilotni yuqori yetaklovchi shaxs, balki davlat siyosatini pedagogic jamoa ongiga yetkazuvchi ijtimoiy faol fuqarodir.

Minglab shaxs sifatleri ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va ma'quldir. A.V.Petroviskiy ana shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat, qobiliyatlar borki, ular haqida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim. Avvalo har qanday rahbarda intellect-aql zakovatning ma'lum noormasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlar uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan yana boshqa muhim sifatlari borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatleri. Chunki, ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur chunki, mustaqillik shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

NATIJALAR

Rahbar mustaqil bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardagi subektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha, rahbarning boshqalarga talabchanligi haqida gapiriladi., lekin yaxshi rahbar avvalo o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan munosabatlar tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal, kerak bo'lgan hislatlarni yana biri tom ma'noda ziyoli bo'lishi yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Boshliq o'zidagi madaniyatni avvalo muomilada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i kerak lozim. Muomila madaniyati- bu o'rinli, aniq, qisqa samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan suhbatdoshni tanlash qobiliyatidir. Chunki, boshliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri gapira olmaslik yotadi. O'zganing o'rniga tura olish, uning his kechinmalariga sherik bo'lish, impatiya hissining borligi dialoglarda sabr-toqatlilik va boshqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatleri ichida eng muhimi, tabbiyki, psixologik mahoratni talab etgani odamlar bilan ishlash mahoratidir. Jamoa a'zolari bilan samarali ishlash uchun esa boshliq ularning psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, chunki o'zgalar bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxshi vositasi ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar

bilan ishlovchilar jamoani boshqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Rahbarlik uslublari rahbarga xos bo'lgan boshqaruv muommolarini hal qilish usullari yo'llari to'plamidir, ya'ni u rahbarlikning doimiy ravishda qo'llaniladigan usullar tizimidir. Asosan rahbarlik uslublari 3-guruhga bo'linadi.

Avtoritar(direktiv)- Jamoani boshqarish usullariga asoslanadi. Vakolatlar bitta rahbarning qo'lida to'plangan, qarorlar individual ravishda qabul qilinadi. Haddan tashqari tashabbus g'oyib bo'ladi, ish tartibi qattiq va nazorat darajasi juda yuqori. Hamma narsa aniq maqsadga erishishga qaratilgan. Bunday yetakchilik uslubiga ega bo'lgan tashkilotlar ma'lumotlarning maxfiylikiga katta e'tibor berishadi. Boshliqlar uchun mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas, qo'l ostidagilar bilan aloqa qilish juda qattiq bo'lishi mumkin. Jazolar va sanksiyalar darhol kelad, norozilar darhol ishdan bo'shatiladi.

Demokratik- Demokratik rahbarlik uslubi (boshqa ma'noda u kollegial deb ataladi) nafaqat xodimlar boshqalarning ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy usullaridan foydalanish. Ushbu ish uslubida hamkorlikda qaror qabul qilish qo'llaniladi. Xodimlar ustidan nazorat unchalik qattiq emas, hokimiyat tanqidiga toqatli munosabatda. Xodimlar o'rtasidagi aloqa tog'ri va nozik, tashkilot ichidagi ma'lumotlar mavjud.

Liberal- K.Levin o'zining yetakchilik uslublari nazariyasida bunday biznes xatti-harakatlarini anarxiya deb ataydi. Bu ma'muriy jarayonning yo'naltiruvchi ta'siri bo'lmagan va uning barcha ishtirokchilari deyarli mutlaq erkinlikka ega bo'lgan holat. Bu texnika nafaqat foyda keltirmaydi, balki zararlidir va shuning uchun aksariyat hollarda. Ammo ma'lum sharoitlarda hatto liberal rahbarlik uslubi ham samarali bo'lishi mumkin. Agar tashkilot yetarlicha yuqori malakali va ayni paytda intizomli ishchilarga ega bo'lsa, zaif ifodalangan kuchga toqat qilish mumkin. Bu masalan, qandaydir ilmiy yoki ijodiy laboratoriyalar bo'lishi mumkin.

MUHOKAMA

Har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deb atadik. Fikrlash va harakat bir paytning o'zida ro'y beradi, boshqaruv o'zi o'ylashi, o'zi mantiqiy xulosaga kelishi va ularni amalda oshirishga kirishi kerak. Avvalo, rahbar o'zi boshqaruv qilayotgan tizim, tuzilma haqida yetarlicha dunyoqarash bilim, tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi shart. O'z navbatida intilivchan hamda har tomonlama o'tkir zehnlilik bo'lishi zarur.

Rahbarning professional rivojlanishida shunday obyekt va subyektiv omillar mavjudki, ular shaxsning boshqaruv sohasida ulg'ayishiga to'siqinlik qilib, shu bilan birga uning professional jihatdan o'zini yana bir bor namoyon etishiga, kasb sohasi bilan o'zining mutanosibligini aniqlashtirishga asos bo'ladi. Har qanday professional inqiroz-

shaxsning kasb bilan identifikatsiyalashuvi borasidagi ziddiyat bo'lib, bunda insonning kasb sohasida o'zini yangitdan ifodalash zaruriyati uning avvalgi identifikatsiyasini saqlab qolish niyati bilan ziddiyatga boradi.

Tabiiyki, har qanday harakat, faoliyat doim ham o'ylaganidek bir tekisda davom etmaydi. Ayniqsa ishga, shaxsiy va jamoaviy professionalism rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar rahbarlik faoliyatida ko'p uchraydi. Ularning sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatish darajasida bo'lishi ancha ayanchli. Bunday holatlarga duch kelmaslik uchun boshqaruv jarayonini strategik yo'lga qo'yish juda muhimdir. Sababi kichik xato ham ulkan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aytib o'tilganidek asosiy javobgar rahbar bo'ladi. Shuning uchun bunday holatlarda ko'p jabr rahbar rahbarlar zimmasiga qoladi.

Rahbar maslahatlarini berish-rivojlanish strategiyasini o'zgartirishga qo'shimcha o'sish manbalarini topishda murakkab muommolarni yechish uchun rahbarlarga mutaxassis yordamidir. Bu bilan o'z-o'zini tashkil etish va rivojlantirish mexanizmini yuritadi. Maslahatchi-ijtimoiy menejer, umumijtimoiy va umuminsoniy ne'matlar tashuvchi, jamiyat hayotining turli jabhalariga yaxshi moslashadi.

XULOSA

Rahbarlik bu nafaqat boshqaruv, balki jamoani rivojlantirish va ilhomlantirish san'atidir. Samarali rahbarlik uchun strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qililish, jamoani boshqarish, muommolarni hal qilish, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlar muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ishonchlik, mas'uliyat, ado;at, tashabbuskorlik va intizomlilik kabi shaxsiy sifatlar har qanday rhabrning muvaffaqiyatida katta rol o'ynaydi.

Zamonaviy rahbar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy rivojlantirib borishi moslashuvchan va innovatsion bo'lishi kerak. Faqat shunda u o'z jamoasi bilan yuqori natijalarga erisha oladi.

Boshqacha qilib aytganda samarali rahbarning eng muhim sifatlaridan biri-analitik fikrlash qobiliyati bo'lib, bu rahbarning tezkor va oqilona qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Har qanday murakkab muommolarni tahlil qilish, imkoniyatlarini baholash va eng maqbul yechimni toppish rahbarlikning muhim jihatlaridan biridir. Shu bilan birga, rahbar o'z jamoasi uchun mas'uliyatni his qilishi, xatolarni tan olib, ularni tuzatish yo'llarini izlab topishi kerak. Bundan tashqari, samarali rahbarning kommunikativ qobiliyatlari ham muhim o'rin tutadi. Jamoa bilan ochiq va samimiy muloqot olib borish, har bir xodimning fikrini tinglash va ularga qo'llab-quvvatlash berish rahbarning hurmat va ishonch qozonishga yordam beradi. Ayniqsa, bugungi kunda globalizatsiya va texnologik tarqqiyot sharoitida psixologik barqarorlik va moslashuvchanlik rahbarlik sifatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Stressli vaziyatlarni boshqarish, inqiroz sharoitida muvozanatni saqlash va doimiy o'zgarishlarga moslasha olish bugungi rahbar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardir.

Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli rahbar bo'lish uchun shaxsda yetakchilik qobiliyatlari, strategic fikrlash, samarali boshqaruv uslublari, yaxshi muloqot ko'nikmalari va yuqori darajadagi mas'uliyat hissi bo'lishi lozim. Zamonaviy jamiyatda rahbarlik nafaqat bilim va tajribaga, balki insoniy fazilatlar va motivatsion kuchga ham bog'liq. Shuning uchun rahbarlik qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish va yangi sharoitlarga moslashish bugungi rahbarlar uchun muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ijtimoiy psixologiya T.L.Xurvaliyeva, S.N.Jo'rayeva (2023)
2. Umumiy psixologiyasi F.I.Xaydarov, N.I.Xalilov (2019)
3. Kasb faoliyat psixologiyasi Z.N.Yulchiyeva (2022)
4. Boshqaruv jarayonlarida rahbarlik faoliyatini rivojlantirish (2022)
5. Ю.В.Полякова. Корпоративная культура как инструмент повышения эффективности деятельности организации [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.msnauka.com/14_NPRT_2010/Economics/66548.doc.htm
6. О.С.Виханский, А.И. Наумов Менеджмент: Учебник для вузов по эконб. спес. и направл. – Третье изде. – М.: Гардарики, 2008. –С.214.
7. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятий: Сравнительный словарь на русском и немецком языке / Авторы-издатели: О. Грауман, Р.В. Кек, М.Н. Певзнер, А.Г. Ширин. - Хильдесхайм, Германия, 2004.
8. Э.Ф. Зеер, Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. - М.: МПСИ, 2005.-216 с.
9. М. Sharifxo'jaev., Q.Abdullaev. Menejment. Daslik. - T.: O'qituvchi, 2001.-B.43.
10. Л.В.Пергудов, М.Х.Саидов. Менеджмент экономика вицего образования. - Т.: Молия, 2001.-B.65.

**BUGUNGI KUNDAGI MEHNAT PSIXOLOGIYASI VA HAQIDA
TUSHUNCHA.**

Rustamova Sarvinoz Dilmurod qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
srustamova907@gmail.com

Otaqulova Muxlisa Sobir qizi
CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
muxlisaotaqulova935@gmail.com

Iskandarova Ruxshona Sherali qizi
CHDPU Amaliy psixologiya 2-kurs 23/2-guruh talabasi
ruxshonaiskandarova862@gmail.com

Аннотация: Значение психологии труда в современной трудовой среде возрастает. В данной статье изучаются основные проблемы психологии труда - профессиональный стресс, снижение мотивации сотрудников, эффективность стилей руководства, отсутствие психологической безопасности - и современные пути их решения (например, гибкий график работы, мотивационные программы, оптимизация организационной культуры). В исследовании использовался анализ 40 международных научных статей, опубликованных в 2018-2023 годах, результаты опроса, проведенного с участием 300 сотрудников в Узбекистане и странах СНГ, а также анализ состояния корпоративных практик. Результаты показывают сильную корреляцию между психологическим благополучием работников и производительностью. В заключение была подчеркнута необходимость создания в организациях центров психологической помощи, повышения квалификации руководителей и гуманизации условий труда.

Ключевые слова: психология труда, профессиональный стресс, мотивация сотрудников, организационная культура, психологическая безопасность, стили руководства, производительность труда.

Abstract: The importance of work psychology in the modern working environment is increasing. In this article, the main problems of labor psychology - professional stress, decrease in employee motivation, effectiveness of leadership styles, lack of psychological safety - and modern solutions to them (for example, flexible work order, motivational programs, optimization of organizational culture) are studied. The research used the analysis of 40 international scientific articles published in 2018-2023, the results of a survey conducted with the participation of 300 employees in Uzbekistan and the CIS countries, as well as the analysis of the state of corporate practices. The results show a strong correlation between workers' psychological well-being and productivity. In conclusion, the need to create psychological service centers in organizations, improve the qualifications of leaders and humanize working conditions was emphasized.

Key words: work psychology, professional stress, employee motivation, organizational culture, psychological safety, leadership styles, labor productivity.

Kirish.

Mehnat psixologiyasi-bu xodimlarning psixologik holati, ularning motivatsiyasi va tashkiliy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganuvchi fan sohasi. 21-asrda raqamlashtirish, global raqobat va pandemiyalar kabi omillar mehnat sharoitlarini keskin o'zgartirib, yangi psixologik muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, masofaviy ish tartibi stressni kamaytirish imkoniyatlarini yaratgan bo'lsa-da, ijtimoiy izolyatsiya va ishtenglik muvozanatining buzilishi kabi salbiy oqibatlarga ham olib keldi. O'zbekistonda esa, iqtisodiy islohotlar davrida mehnat bozoridagi o'zgarishlar, yuqori ishsizlik darajasi va malakali kadrlar etishmovchiligi xodimlarning psixologik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning maqsadi-mehnat psixologiyasi sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ayniqsa, O'rta Osiyo mintaqasi kontekstida ushbu sohaga oid tadqiqotlar yetarli emasligi maqolaning amaliy ahamiyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mehnat faoliyatining psixologik mohiyati insonga uning kasbi taqozo qiladigan psixik xususiyat, holat va jarayonlarga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish faoliyatining har xil turlari (kasblar va ixtisosliklar) uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun inson shaxsining turli-tuman xususiyatlari: uning maqsadga yo'naltirilganligi, tajriba, xarakter, qobiliyat, psixik holatlar, diqqat-e'tibor, tafakkur, xotira, fikrlash, emotsionallik, iroda kuchi va psixomotorikani talab qiladi - bular mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyatlilikni belgilaydi. Mehnat psixologiyasining predmeti - mehnat faoliyatida inson ruhiyatining shakllanish qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lishi hamda kasbiy saralash, kasbiy maslahat va mehnat ekspertizasi masalalaridir. Ye.A.Klimov ta'rifi bilan aytganda, "mehnat psixologiyasining fan sifatidagi o'zagi: bu mehnat sub'yekti sifatida insonning xatti-harakati va shakllanishiga doir amaliy masalalarni ilmiy asoslangan holda hal etish shart-sharoitlarini, yollari va usullarini o'rganuvchi psixologiya sohasidir". Shu bilan birga mehnat psixologiyasi fanining sub'yekti deb — inson ko'rsatilgan. Mehnat psixologiyasining tadqiqot ob'yekti sifatida ishlab chiqarish va mehnatda shaxs faoliyatining psixologik xususiyatlari, uning ishdan bo'sh vaqti, hordiq olishining ishlab chiqarishga ta'siri va mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlari o'rganiladi. Mehnat unumdorligini oshirish uchun ishchiga ijtimoiy shartsharoitlar yaratish, jismoniy xavfsizligini ta'minlash, jismoniy hamda emotsional zo'riqlashlarning oldini olish yoki bartaraf etish uchun ketgan sarflar miqdorini kamaytirish zarirdir. Mehnat psixologiyasining maqsadi mehnatkashlar uchun aqliy va jismoniy faoliyat jarayonida aynan psixologik iliq muhitni yaratishdan iboratdir.

Mehnat psixologiyasi turli mehnat faoliyatlarining o'ziga xosligini ijtimoiy-tarixiy va aniq ishlab chiqarish sharoiti, mehnat quroli, mehnat ta'limi metodlari hamda

shaxsning psixologik sifatiga ko'ra o'rganuvchi psixologiya fanining bir sohasidir. Mehnat psixologiyasining barcha faoliyat turlariga taalluqli bo'lgan bir qancha umumiy vazifalar, umumiy muammolari hamda professional mehnatning alohida turlariga taalluqli bir qancha juziy muammolari ham mavjud. Mehnat psixologiyasining umumiy muammolari

- mehnat faoliyati nuqtai nazaridan qaraladigan va hal qilinadigan muammolar bo'lib, ulan
- mehnat jarayonida ayrim psixik funktsiyalarning namoyon bo'lish xususiyatlari;
- mehnatga nisbatan u yoki bu munosabatning ahamiyati;
- ishda onglikning rolini oshirish;
- ishchi va xodimlarda kashiy sifatlatr qanday hosil qilinishini o'rganish;
- maktabdan tashqari, bevosita ishlab chiqarishning o'zida amalga oshirilayotgan mehnat va kasbiy ta'lim hamda tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi masalalarni ishlab chiqish;
- texnikani takomillashtirish va undan foydalanish negizida kishilarning mehnat unumdorligini oshirish masalalarini hal etish;
- kasbiy layoqat va kasbiy mahorat, shuningdek, bu layoqatlarni ta'lim jarayonida va ishlab chiqarishda shakllantirish masalalarini ishlab chiqish;
- mehnat ko'nikma va malakalari hosil qilishning ratsional usullarining psixologik asoslarini qidirib topish;
- professional yo'l-yo'riqlar ko'rsatish;
- profkonsultatsiya-kasbiy maslahat berish;
- korxonalarda professional kadrlarni tanlash masalalarini psixologik jihatdan asoslash;
- mehnat sifati
- unumdorligini oshirish;
- ishchi yoki xodimning psixik holati mehnat unumdorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash;
- mehnat xavfsizligini ta'minlash;
- ishchining muayyan holatini keltirib chiqaruvchi sabablarni, sharoitlarni, me'yordan chiqishning o'rni va vaqtini aniqlash;
- professional toliqishning oldini olish;
- mehnat ritmi va dam olish masalalarini o'rganish;
- mashinalarning konstruktiv xususiyatlari, ish joyi va uning psixologik talablarga mos kelishi kabi masalalarni o'rganish;
- mehnat unumdorligini oshirishda ayrim psixik funktsiyalar sifatining, xususan, his-tuyg'ular, inson irodaviy sifatlarining ahamiyatini o'rganishga aloqador masalalardan iborat. Mehnat psixologiyasining juz'iy vazifalariga, avvalo, shaxsning muayyan ixtisos sohasidagi ishning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi, har bir kasbni xarakterlab beruvchi psixik sifatlarni o'rganish kiradi. Ayrim kasblarni, masalan, (chilangar, payvandchi, haydovchi, uchuvchi, po'lat erituvchi, ip yigiruvchi, tikuvchi kabilar) psixologik jihatdan bunday xarakterlash professiogramma deb ataladi

Mehnat psixologiyasining asosiy tarm oqlari Mehnat psixologiyasi odamning mehnat faoliyati bilan bog'liq ko'plab vazifalar yechimini topadigan psixologik bilimlar sohasidir. Mazkur vazifalar majmui mehnat psixologiyasiga oid bilimlarning ixtisoslashuvini, shunga muvofiq tarkibiy qismlarini ajratishni taqozo etadi.

1. An'anaviy mehnat psixologiyasi- mehnat haqidagi bilimlar tarixi, mehnat psixologiyasining nazariy-metodologik asoslari, mehnat va aniq kasbiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, kasbiy muhim sifatlarni ajratish, odamning mehnatda rivojlanishi, professional (kasbiy) inqiroz va shaxsning mehnatdagi destruktiviyasi (ishdan chiqishi), mehnatning psixofiziologik asoslari va boshqa masalalarni o'rganadi.

2. Muhandislik psixologiyasi - inson va texnika o'rtasidagi axborotli o'zaro ta'sir jarayoni qonuniyatlarini, "odam-mashina" tizimini ishga tushirish, yaratish, loyihalash va amaliyotga tadbqiq etish maqsadida o'rganadi.

3. Boshqaruv psixologiyasi (tashkiliy psixologiya)- tashkiliy sharoitlarda xodimlar o'rtasidagi ierarxik (pog'onama-pog'ona) o'zaro munosabatlarni optimallashtirish orqali mehnat samaradorligini oshirish, mehnat jamoasida har bir xodim shaxsining rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

4. Kasbga yo'naltirish – o'z ichiga kasbiy axborot, kasbiy reklama, kasbiy maorif, kasbiy tashhis, kasbiy saralash, kasbiy tanlash, kasbni muqarrar tanlashga (qaror qabul qilish]ga ko'maklashish, mijozlarni axloqiy-hissiy qo'llab-quvvatlash va boshqa masalalarni oladi.

5. Kasbiy ta'lim-mehnat sub'yektining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, kasb egasi (mutaxassis) shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishi, mehnatda va kasbiy faoliyatda o'zligini anglashga yo'naltirilgan o'quv faoliyati. Mehnat psixologiyasi tarmoqlarining o'zaro aloqasi natijasida tashkil topgan qo'shimcha qismlari ham mavjud bo'lib, ular: mehnat psixofiziologiyasi; mehnat psixogigienasi; mehnat reabilitatsiyasining psixologik (psixofiziologik) jihatlari; nogironlarni kasbga yo'naltirish, kosmik psixologiya; yuridik faoliyat psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi va boshqalar

TADQIQOT NATIJALARI

Mehnat psixologiyasiga oid tadqiqotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan metodlik apparatning rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Tadqiqotning aniq metodlarini ishlab chiqishda fanning nazariy tomonlarini aks ettiruvchi metodologiyaga asoslaniladi. Har qanday tadqiqot metodi ob'yekt, usullarni tanlashda va olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda muayyan nazariyaga asoslanadi. Metodologik tahlil nuqtai-nazaridan uchta darajani farqlash mumkin:

1. umumiy metodologiya- borliqni bilishning umumiy falsafiy yondashuv usuli;
2. maxsus metodologiya- mazkur bilimlar sohasida qo'llaniladigan metodologik tamoyillar yig'indisi;

The strategic deployment of risk mitigation instruments—including partial guarantees, first loss provisions, and currency hedging mechanisms—could potentially transform risk-return calculations for potential investors. If systematically integrated into climate investment frameworks, such instruments might mobilize substantial private capital that currently avoids Central Asian markets due to perceived risk factors.

Technology Transfer and Innovation Challenges

Technology transfer processes frequently encounter implementation barriers arising from limited absorption capacity, insufficient adaptation to local conditions, and inadequate attention to operation and maintenance requirements. These limitations undermine the effectiveness of technical assistance despite substantial resource allocation and genuine knowledge sharing intentions.

Regulatory frameworks often lack specific provisions for emerging climate technologies, creating uncertainty regarding grid integration requirements, permitting procedures, and technical standards. This regulatory ambiguity introduces implementation delays and investment risks that constrain technology deployment across multiple domains from renewable energy to energy efficiency and climate-smart agriculture.

Regional innovation systems exhibit structural limitations including insufficient research funding, limited industry-academia collaboration, and inadequate intellectual property frameworks. These systemic constraints undermine the development of locally optimized climate solutions while reinforcing dependence on imported technologies that may inadequately address Central Asian specificities.

If European and Central Asian partners were to establish joint technology adaptation programs with explicit focus on contextualizing climate solutions for regional conditions, technology transfer effectiveness might substantially improve. Such programs could potentially combine European technical expertise with local knowledge regarding implementation constraints, creating adaptation pathways that enhance deployment prospects while building regional capacities.

The development of specialized innovation zones with simplified regulatory frameworks for climate technologies would potentially accelerate deployment while generating valuable implementation experience. If designed with explicit learning objectives and knowledge dissemination mechanisms, such zones might function as laboratories for regulatory innovation that subsequently informs broader policy development.

Regional technology platforms focusing on priority domains like water efficiency, renewable energy integration, and climate-resilient agriculture could potentially foster knowledge exchange while establishing communities of practice across national boundaries. If complemented by dedicated funding for collaborative research and technology adaptation, such platforms might catalyze regionally optimized innovation ecosystems addressing shared climate challenges.

Policy Harmonization and Integration Recommendations

Policy harmonization efforts frequently encounter resistance arising from concerns regarding sovereignty implications, divergent national priorities, and varying implementation capacities. These tensions complicate regional cooperation despite shared recognition of transboundary environmental interdependencies.

Sectoral policies often develop in isolation from climate frameworks, with economic development strategies, industrial policies, and infrastructure plans frequently contradicting stated climate objectives. This policy incoherence undermines implementation effectiveness despite formal commitments to climate mainstreaming and sustainable development principles.

International commitments and domestic implementation frameworks frequently exhibit substantial disconnection, with ambitious international pledges inadequately translated into national budgetary allocations, regulatory frameworks, and institutional mandates. This implementation gap undermines accountability while reducing international credibility.

If Central Asian states were to adopt a differentiated harmonization approach with tiered compliance pathways reflecting varying capacities and priorities, regional cooperation might potentially transcend current limitations. Such an approach could establish consensus standards in domains with shared interests while creating flexibility mechanisms that accommodate legitimate national differences in implementation timeframes.

The systematic application of climate impact assessment methodologies to major policy initiatives across economic planning, infrastructure development, and sectoral strategies would potentially enhance policy coherence. If institutionalized through formal requirements with transparent assessment frameworks and independent review mechanisms, such approaches might progressively align sectoral policies with climate objectives.

Enhanced transparency frameworks linking international commitments with domestic implementation could potentially strengthen accountability while building international credibility. If complemented by regular progress assessments with standardized methodologies and public reporting requirements, such frameworks might create stronger implementation incentives while facilitating knowledge sharing regarding effective policy approaches.

Conclusion

This article has examined the evolving landscape of climate cooperation between the European Union and Central Asian states, with particular emphasis on alternative strategies for enhancing Uzbekistan's sustainable development trajectory. The analysis has traversed multiple dimensions—from regional climate vulnerabilities and European governance models to existing cooperation frameworks and innovative proposals for transcending conventional approaches. This concluding section synthesizes key findings, articulates subjunctive reflections on potential future trajectories, and identifies promising directions for subsequent research and policy development.

Synarticle of Key Findings

The Central Asian region confronts multidimensional climate vulnerabilities that transcend national boundaries, creating compelling imperatives for enhanced cooperation both within the region and with external partners. Accelerating glacial retreat, intensifying water scarcity, and expanding desertification collectively threaten development trajectories while exacerbating existing socioeconomic vulnerabilities. Uzbekistan's distinctive challenges—particularly regarding water security, agricultural

sustainability, and energy system transformation—require contextually appropriate responses that accommodate national priorities while advancing climate resilience objectives.

The European Union offers valuable experience regarding climate governance architectures, policy instruments, and implementation pathways, though direct transferability

REFERENCES

1. Barandun, M., & Pohl, E. (2023). Central Asia's spatiotemporal glacier response ambiguity due to data inconsistencies and regional simplifications. *The Cryosphere*, 17, 1343–1371. <https://doi.org/10.5194/tc-17-1343-2023> tc.copernicus.org
2. International Land Coalition. (2024). *State of global land degradation: Central Asia snapshot* (12% expansion of degraded lands since 2000). (no public link available)
3. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2023). *Climate Change 2023: Synthesis Report*. <https://www.ipcc.ch/synthesis-report/> [IPCC](https://www.ipcc.ch/)
4. World Health Organization Regional Office for Europe. (2024). *Climate change and health in the WHO European Region*. <https://www.euro.who.int/en/health-topics/environment-and-health/climate-change> gateway.euro.who.int
5. World Bank. (2019). *Towards a Greener Economy in Uzbekistan*. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/7046a76c-f533-5846-83e4-7dde22f2ad03> [Open Knowledge](https://openknowledge.worldbank.org/)
6. International Energy Agency (IEA). (2024). *Uzbekistan – Country Profile*. <https://www.iea.org/countries/uzbekistan> [Международное Энергетическое Агентство](https://www.iea.org/countries/uzbekistan)
7. Ministry of Health, Republic of Uzbekistan. (2024). *Annual Health Statistical Yearbook*. (no public link available)
8. Asian Development Bank (ADB). (2024). *Climate Change in Central and West Asia: Routes to a More Secure, Low-Carbon Future*. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/27478/climate-change-cw.pdf> [Asian Development Bank](https://www.adb.org/)
9. Food and Agriculture Organization of the UN (FAO). (2024). *Roadmap to tackle climate change challenges to agricultural production in Uzbekistan*. <https://www.fao.org/science-technology-and-innovation/resources/stories/detail/uzbekistan--roadmap-to-tackle-climate-change-challenges-to-agricultural-production> [FAOHome](https://www.fao.org/)
10. European Commission. (2020). *2030 climate and energy framework*. https://climate.ec.europa.eu/eu-action/climate-strategies-targets/2030-climate-targets_en [Climate Action](https://climate.ec.europa.eu/eu-action/climate-strategies-targets/2030-climate-targets_en)

11. Eurostat. (2023). *Renewable energy statistics*.
https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Renewable_energy_statistics European Commission
12. European External Action Service (EEAS). (2007). *EU Strategy for a New Partnership with Central Asia*.
https://www.eeas.europa.eu/sites/default/files/eu_strategy_for_a_new_partnership_with_central_asia_implementation.pdf EEAS
13. EEAS. (2019). *The EU and Central Asia: New Opportunities for a Stronger Partnership*.
https://www.eeas.europa.eu/sites/default/files/joint_communication_the_eu_and_central_asia_new_opportunities_for_a_stronger_partnership.pdf EEAS
14. European Commission. (2021). *Global Gateway – Europe’s initiative for global infrastructure and investment*. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/stronger-europe-world/global-gateway_en EEAS
15. European Commission. (2022). *Annual Report 2022 on the Neighbourhood, Development and International Cooperation Instrument (NDICI-Global Europe)*.
https://international-partnerships.ec.europa.eu/funding-and-technical-assistance/funding-instruments/global-europe-neighbourhood-development-and-international-cooperation-instrument_en International Partnerships
16. European Investment Bank. (2024). *Investment Facility for Central Asia (IFCA) – Operational Report 2020*. https://international-partnerships.ec.europa.eu/system/files/2021-06/ifca-aif-ifp-operational-report-2020_en.pdf International Partnerships
17. Central Asian Research and Education Network (CAREN). (n.d.). Home.
<https://caren.geant.org/> caren.geant.org
18. Regional Environmental Centre for Central Asia (CAREC). (2020).
19. World Bank Group. Central Asia Water & Energy Program (CAWEP).
<https://www.worldbank.org/en/region/eca/brief/cawep> (Central Asia Water & Energy Program - World Bank)

**TARBIYA JARAYONING MOHIYATI VA UNING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. TARBIYA QOIDALARI**

Jaylovov To'xtamurod Sodiq o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya jarayoning umumiy mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, yosh avlodni tabiiylash to'g'risida qomusiy allomalarning fikrlari, shuningdek tarbiyaning qoida va qonuniyatlari haqida ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya maqsadi, tarbiya jarayoni, tarbiyalash, Mahatma Gandi, "ijtimoiy emlashlar", bambuk daraxti, "poklik" aql chig'irig'i;

**Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot,
yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.**

Abdulla Avloniy

Tarbiya - bu ijtimoiy, ishlab chiqarish va madaniy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish uchun shaxsni ma'naviy va jismoniy shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli samarali jarayondir. "Avesto"dan tortib, Sino, Beruniy, Forobiy, Jomiy, Navoiy, Koshifiy, Ulug'bek, Ahmad Donish, Behbudiy, Ayniy, Fitrat va boshqa mutafakkirlarimizning asarlarini odob va axloq to'plami deyish mumkin. Ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz qadimdan yoshlarning ta'lim va tarbiyasiga alohida ahamiyat berishgan. Ilm o'rganish, bilimlilik va odob ular uchun eng qimmatli insoniy fazilatlar edi. Mutafakkirlarimizning fikricha, har bir inson yaxshi xislat va xatti-harakatlarga ega bo'lishi, jamiyatga foydali a'zo bo'lishi uchun axloqni o'rganishi va egallashi lozim. Ibn Sinoning pedagogik asarlarida ta'lim-tarbiya katta o'rin tutadi. Uning fikricha, tarbiya tug'ma emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli bo'lib, u kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi va shu bilan u axloqning o'zgarmasligini rad etadi [1]. Tarbiya maqsadi – davlat, jamiyat va har bir shaxs manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat maqsad va vazifalarining tarkibiy qismidir. Hukumat odamlarning hayoti va faoliyatiga, fuqarolarning milliy tarbiyasiga hissa qo'shadigan shunday tartib va tizimlarni joriy etadi. Milliy tarbiya fuqaroda yuksak axloqiy fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, insonparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va boshqa ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Bunday fuqaro milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda harakat qilishi, o'z vatanini sevishi, uning manfaatlarini himoya qilishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning

hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi [2]. Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi. Ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit varatadi.

Hozirgi davrda tarbiya masalasi har davrdagidan ham yetakchi masala sifatida maydonga chiqmoqda. Bizga ma'lumki, insonning turli kasalliklarga qarshi kurasha olishda biologik emlash dastlab XVIII asrda kashf qilingan. Mahatma Gandi o'z asarlarida ilk bora "ijtimoiy emlashlar" atamasini qo'llaydi, u buni bolaning ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini asta-sekin anglashi va salbiy hodisalardan o'ziga xos immunitetning rivojlanishi tarzida tushuntiradi. U bolani har tomonlama hayotga tayyorlashda quyidagilarni taklif qiladi: jismoniy azob - uqubatlar, ruhiy bo'shliq, kasallikni yengish hamda qo'rquv, zo'rvonlik bilan yovuzlikka qarshilik ko'rsatmaslik [3]. Shu o'rinda tarbiya jarayoni uzluksiz davom etadigan kechiktirib bo'lmaz jarayonligini xitoyliklarning bambuk daraxtiga qiyoslashgani juda o'rinli. Bambuk yerga ekilgach 4 yilgacha faqat nimjon nihol bo'y ko'rsatadi. Ammo yer ostida popukchalari ko'payib boradi. 5-yili daraxt kutilmaganda 25 metrga bo'y ko'rsatadi. Tarbiyadagi nuqsonlar biz kutmaganimizda o'z natijasini ko'rsatishi mumkin [4].

Inson asosan ikki xil yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali. Shuningdek, inson o'zining fiklashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi, tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin [5]. Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiyalash - jamoaviy ijodiy faoliyat bo'lib tarbiyalanuvchida mehnatga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish, bolalar va yoshlarning ijtimoiy harakatlarga birlashtirish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy

muassasalar bilan birgalikda faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishini ta'minlash kabilardir [6]. Ota-bobolarimiz "Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim" deya juda asosli fikr aytishgan. Birinchi prezidentimiz haqli ravishda "Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak" -degan edilar.

Tarbiya –"Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning saodati va salomati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslagini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur [7]. Tarbiya jarayonida an'analar, udumlar, rasm-rusumlarning roli kattadir. Vatan tuyg'usini shakllantirish, ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, ezgulik timsoli bo'lgan insoniylikni ulug'lash, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, huquqiy madaniyat sog'lom dunyoqarashning sog'lomomili ekanligi to'g'risidagi bilimlarni boyitish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillari to'g'risidagi tushuncha bularning barchasiga tarbiya metodlari orqali erishiladi.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo'lishida aql, fikr, sezgilarining o'rni haqida so'z yuritir ekan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin [7]. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi». Olimning fikricha, faqat eshitilgan, ko'rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig'irig'idan o'tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki "Tarbiya" fani bo'lg'usi fan o'qituvchilariga yuqori talablarni qo'yadi. "Tarbiya" fani o'qituvchisi yuksak ma'naviyatli, kasbiy qobiliyatli va keng tafakkurga ega bo'lishi talab qilinadi. Sababi fan falsafa, axloq, din, etika, estetika, psixologiya va tadbirkorlik kabi ko'plab fanlar uyg'unligidan iborat. Tarbiya orqali shakllangan avlodlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o'z hissalarini qo'shadilar, bu esa umuman jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun, tarbiyaga e'tibor berish, uning sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash jamiyatning kelajagi uchun ajralmasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidnazarova Gulshan Bolta qizi, Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. – 14-16 b.
2. I.Y.Tursunov., U.N. Nishonaliyev. Pedagogika kursi. - T.: «O'qituvchi», 1997, 172-174 betlar
3. Комаров Э. Я., Литман А. Д. Мировоззрение., М. К. Ганди. - М., 1969. -С. 174-175.
4. Ўзаро рақобат ва назорат муҳитини шакллантиришда таълим кластерининг асосий хусусиятлари. /Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий конференция. Чирчиқ, 2021. Б-103-108.
5. Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент “Ўқитувчи”1995. Б-3
6. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning haqiqiy kafoloti, Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. 1993. 27-28-betlar.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. –Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.
8. Abu Rayhon Beruniy. Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. — T.: «O‘zbekiston», 1992

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYALARI

Urinova Durdona Olimjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
durdonaurinova488@gmail.com

*Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori, dotsent .
Tojiboeva Gulmira Rifovna*

Annotasiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish konsepsiyalari mavzusidagi maqola, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va metodlarini tahlil qiladi. Maqolada so'z boyligini boyitish, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish, izchil nutqni rivojlantirish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish hamda muloqot va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish kabi yo'nalishlar muhokama qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlar, o'yinlar va rolli o'yinlar, loyiha asosida o'qitish kabi metodlarning qo'llanilishi va o'qituvchining roli ham yoritiladi. Maqola o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompetensiya, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, boshlang'ich sinf o'quvchisi, nutq, ta'lim, tovush, interfaol metodlar.

Kirish: Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilimli, ma'naviyati yuksak va vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan shaxslarni tarbiyalash ekanligi ta'kidlanadi. Rivojlangan davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish konsepsiyalari Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Aynan shu davrda ularning nutqiy ko'nikmalari, fikrlash qobiliyati va kommunikativ mahorati rivojlanadi. Nutqni rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish, balki ularning ijodiy tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nutqni rivojlantirishning asosiy konsepsiyalari: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish turli yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Quyida eng asosiy konsepsiyalar ko'rib chiqiladi:

1. Psixolingvistik yondashuv: Bu yondashuv bolaning psixologik rivojlanishini va lingvistik kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishga asoslangan. Ushbu yondashuvga

ko'ra: Bola nutqini rivojlantirish uning psixologik o'sish bosqichlari bilan bog'liq. Nutqiy faoliyat turli yosh davrlarida turlicha shakllanadi. Kommunikativ muhit bolaning so'z boyligini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Kognitiv yondashuv: Bu konsepsiya bolaning tafakkur jarayonlarini rivojlantirish orqali nutqni shakllantirishga qaratilgan. Nutq va tafakkur bir-biri bilan bog'liq jarayonlardir. O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish nutqiy rivojlanishga yordam beradi. Tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish uchun suhbat, bahs, matn tahlili kabi usullar qo'llanadi.

3. Lingvodidaktik yondashuv: Bu yondashuv til o'rgatish metodikalari orqali nutqni rivojlantirishga asoslanadi. Ona tili darslarida so'z boyligini oshirish, grammatik to'g'ri gap tuzish va matn yaratish ustida ishlash muhim. Lug'at boyligini kengaytirish uchun interfaol metodlardan foydalanish zarur. O'quvchilarga hikoya, ertak, dialog, drammatizatsiya kabi metodlar orqali so'zlashuv ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

1. O'yin texnologiyalari: Rolli o'yinlar (masalan, savdo do'koni, shifokor qabulxonasi, sayohat). Nutqiy topshiriqlar (jumlaning to'ldirish, hikoya tuzish). Jamoaviy o'yinlar (so'z zanjiri, topishmoq va jumboqlar).

2. Suhbat va bahslar: O'quvchilarni o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifoda etishga o'rgatish. Jamoaviy muhokamalar orqali ularning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. Erkin nutq mashqlarini bajarish (masalan, "Mening eng sevimli mashg'ulotim" mavzusida gapirish)

3. Matn bilan ishlash: Hikoya qilish va matnni qayta so'zlab berish. Matn asosida savol-javob usulini qo'llash. Matndan muhim g'oyalarni ajratib olish va qisqacha bayon qilish.

4. Audio va video materiallardan foydalanish: Bolalarga audio ertaklar va hikoyalar tinglashni taklif qilish. Multfilmlar orqali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Videoroliklar orqali talaffuz va intonatsiyani rivojlantirish.

Nutqiy rivojlanishning baholash mezonlari: Bolalarning nutqiy rivojlanishini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1. Lug'at boyligi – bolaning so'z zaxirasi va uni qo'llash qobiliyati.
2. Grammatik to'g'rilik – jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish.
3. Muloqot qobiliyati – erkin nutq va suhbat qurish mahorati.
4. Talaffuz va intonatsiya – so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va intonatsiyaga e'tibor berish.

Xulosa: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish murakkab, lekin muhim jarayondir. Bu jarayonda psixolingvistik, kognitiv va lingvodidaktik yondashuvlar asosida ish olib borish samarali natijalar beradi. O'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va kommunikativ

malakalarini shakllantirish uchun o'yin, suhbat, matn bilan ishlash kabi metodlardan foydalanish muhim. Shuningdek, audio va video materiallar yordamida bolaning nutqiy qobiliyatini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, natijalarni baholash va monitoring qilish orqali o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatib borish lozim. Bu konsepsiyalar asosida olib borilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning kelajakda o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alikabulov S. A. Modifying Additives to Bitumen //International Journal 1on Orange Technologies. - 2021. - T. 3. - №. 9. - С. 100-102.
2. Рахимов Б. Б., Шукуруллаев Б. А., Аликабулов Ш. А. Методы исследования и влияние нефтяных остатков на свойства строительного битума //Universum: технические науки. - 2021. - №. 6-3 (87). - С. 88-92.
3. Хамидов Б. Н., Аликабулов Ш. А., Рахимов Б. Б. Сравнительные испытание опытных партий композиционного строительного битума марки бн 90/10 с добавлением экстрактного остатка, нефтешлама и отбеливающей глины для применения в строительных объектах //Universum: технические науки. -2020. - №. 10-3 (79). - С. 29-31.
4. Аликабулов Ш. А. Влияние добавок на структуру и свойства битумов //Universum: технические науки. - 2021. - №. 10-3 (91). - С. 36-38.
5. Khamidov S. et al. Production and performance tests of axo oil with improved colloidal indicators //AIP Conference Proceedings. - AIP Publishing LLC, 2022. - Т. 2432. - №. 1. - С. 030008.
6. Негматов С. С. и др. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ РЕЖИМОВ ЭКСПЛУАТАЦИИ МЕТАЛЛИЧЕСКОЙ ОСНАСТКИ НА ИЗНОСОСТОЙКОСТЬ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ //Universum: технические науки. - 2022. - №. 11-5 (104). - С. 5459.

MUZEYLAR – XALQ TARIXINING KO‘ZGUSI

Marjona To‘xtayeva Boybo‘ri qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Tel: 91 714 28 04; tuxtayevamarjona09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzey tushunchasi, mazmun-mohiyati, tarixi to‘g‘risida hamda ko‘plab davlatlardagi muzeylar to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda muzey sohasiga berilgan e‘tibor va uning hozirgi kundagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Muzey, muzeun, Yunoniston, kolleksiya, O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье представлена информация о понятии, сущности, истории музея, а также о музеях многих стран. Также освещено внимание, уделяемое музейной сфере в нашей стране, и ее значение сегодня.

Ключевые слова: Музей, музей, Греция, коллекция, Узбекистан.

Annotation. This article provides information on the concept, content, history of the museum, and museums in many countries. It also highlights the attention paid to the museum sector in our country and its current importance.

Keywords: Museum, museum, Greece, collection, Uzbekistan.

Muzey yunoncha so‘z bo‘lib, muza, muzeun so‘zidan kelib chiqqan. Muzeun-bu go‘zal buyumlar saqlanadigan joy degan ma‘noni anglatadi. Insoniyat tarixidan dalolat beruvchi muzeylar bugungi kunda insoniyatning buyuk ixtirolaridan biri desak xato bo‘lmaydi. Zero, har bir xalqning o‘z tarixi bor. Muzeylar – jonli tarix, o‘tmishdan guvohlik beruvchi muassasalardir. Ularda xalqlarning tarixi, urf-odatlar, an‘analari o‘z aksini topgan moddiy va ma‘naviy yodgorliklar saqlanadi [1;5-bet].

Dastlabki davrda muzeylarning paydo bo‘lishi antik davrdagi ilhom parilari-muzalarning ehromlari muzeumlarga taqliddan kelib chiqqan deyiladi.

Tarixiy amaliyotning guvohlik berilishicha, muzey muassasalari har xil terminlar bilan atalishi mumkin. Masalan, Vyetnam muzeylari “bao-ta”– “yodgorliklar saqlanadigan joy” termini bilan ataladi. Bu termin muzeyning asl mohiyatini ochib beradi.

Muzey – tarixiy, moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy hamda ilmiy-ma‘rifiy muassasadir. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy ashyolar, shuningdek, san‘at asarlari jamlanadi. Shu bilan birga (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozlamalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi [2;10-bet]. Umumiy aytganda, muzey xalq boyligi saqlanadigan xazinadir.

Dastlabki muzeylar ham aynan funksional jihatdan hozirgi muzeylardan farq qilmagan. Ular ham noyob buyumlarni saqlash va namoyish qilish vazifasini bajargan. Qadimda muzeylar alohida muassasa sifatida faoliyat ko‘rsatmasdan, ma‘lum vaqtlarda

yoki birorta tadbir tarkibida o'tkazilgan, shuningdek buyumlarga eksponat sifatida qaralmagan, balki kolleksiya namunasi sifatida e'tibor berilgan. Chunki turli mavzulardagi noyob buyumlar aholining o'ziga to'q tabaqasi, amaldorlardan iborat kolleksionerlar tomonidan yig'ilgan, chunki oddiy xalqning noyob kolleksiyalarni to'plashga qurbi etmagan va yig'ilgan kolleksiyalar xalqqa namoyish etilgan.

Antik davrda Yunonistonda kolleksiyalar yig'ish keng avj ola boshlagan. Yunonistondagi Gelikon tog'i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan joy muzeylarning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblangan. Sa'nat, madaniyat va fanda erishilgan yutuqlarning namunalaridan iborat kolleksiyalar to'plash, Yevropada Uyg'onish davrida dastlab, Italiyada, so'ng esa Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda an'anaga aylandi. Italiyada XV asr moddiy-madaniy buyumlarni yig'ish va namoyish etish ishlari aniq tizim asosida tashkil etilgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarga kelib, Fransiya, Angliya, Germaniyada ham muzeylar tashkil etish odat tusiga kirgan. 1753-yilda ochilgan "Britaniya muzeyi", 1793-yili tashkil etilgan Parijdagi "Luvr" muzeyi G'arbiy Yevropadagi eng yirik muzeylar sanaladi.

XIX asrga kelib dunyo miqyosida ko'plab yirik muzeylar vujudga keldi. 1819-yilda Madriddagi "Prado muzeyi", 1873-yilda Moskvadagi "Tarix muzeyi", 1852-yilda Sankt-Peturbudagi "Ermitaj", 1870-yilda Nyu-Yorkdagi "Metropolitan" muzeylarini misol qilib ko'rsatish mumkin. O'sha davrlarda ko'plab davlatlarda bo'lganidek, O'rta Osiyoda ham katta muzeylar barpo etilgan. Toshkentda ilk muzey 1876-yilda ochilgan, u hozirgi "O'zbekiston tarixi davlat muzeyi"dir. Yurtimizdagi dastlabki muzeyning faoliyati A.P.Fedchenko, N.A.Mayev, V.F.Oshanin, I.V.Mushketov, V.V.Bartold kabi olimlarning harakatlari va tashabbuslari bilan shakllanib borgan.

XX asr O'zbekiston hududida ko'plab muzeylar tashkil etildi. Badiy va uy muzeylari bunga misol bo'ladi. Ayniqsa, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng muzeylar faoliyatida ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. 1994-yil 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida" qaror va shu qaror asosida o'rganilayotgan "O'zbekiston Davlat san'at davlat muzeyi"ning yangidan ta'mirlanishi bunga yaqqol misoldir[3].

Millatimizning o'zligini anglashda hamda tarixiy, milliy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Shu boisdan ham mustaqil yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. Shu jumladan, 1996-yili Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, 2002-yili Qatag'on qurbonlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi-Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yildagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risi"dagi farmoni

mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini boshlab berdi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda O'zbek muzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishda ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus, ingliz tillarida nashr etila boshlandi.

Yoshlar ma'naviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib, 2014-yili Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari va har yakshshanba bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har yili muzeylar haftaligini tashkil etish belgilangan. Bu qarorlarning barchasi ta'minlanib kelinmoqda.

Yurtimizda 1991-1994-yillarda 73ta muzey mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilga kelib muzeylar soni 450ga yetdi. Mamlakatimiz muzey sohasini rivojlantirish bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar va taraqqiyot rejamizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Buning uchun muzeylardagi ashyo va kolleksiyalarni chuqur o'rganib, ularning bebaho qadr-qimmatini xalqimizga ochib berish, bular to'g'risida yoshlar ongida nazariy bilimlarni boyitish lozimdir[4; 446-447-betlar].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muzeylar har bir davlatning tarixini, madaniyati va an'anasini namoyon qilib kelayotgan muassasa sifatida rivojlanib kelmoqda. Muzeylarda saqlanib kelinayotgan ko'plab manbalar muhim ahamiyatga ega. Chunki muzeydagi buyumlar ko'p asrlik tarix haqida ma'lumot beradi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish, xorijiy sayyohlarni muzeylarga jalb etish orqali yurtimiz tarixini dunyo miqyosida tarannum etish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, so'nggi yilda davlatimiz rahbari boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda muzeylar faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, muzeylarda o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilish maqsadida 27.05.2022 yildagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda muzey sohasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muzeyshunoslik "Turon-Iqbol" 2018
2. Oybek Klichev, A'zam Boltayev "Buxoro muzeyshunosligi va arxivshunosligi"
Buxoro-2020

3. <https://olymahad.uz/>

4. Ergasheva Shaxista Abduragim qizi-“Muzeylar tarixi va faoliyati, hozirgi kunda ularning ahamiyati”. Muzeylar faoliyatini rivojlantirish uchun ko’rilayotgan chora tadbirlar; Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515

Jo'rayeva Zuhra Jalol qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **t.f.n., professor Y.X.Gaffarov**
jurayevazuhra2303@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yunonistonning shahar-polislari, ularning shakllanishi hamda yuksalishi haqida ayrim mulohazalar yuritiladi. Shu qatorda Yer egalari va dehqonlar bozorga sharob, yog', don, jun olib kelganligi va Sharqqa nisbatan polislardagi iqtisod keng imkoniyatlarni ochganligi, ya'ni tovar-pul munosabatlarini rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Davlatga asosiy daromad podsho yerlaridan emas, balki qullar ishlagan xususiy yerlardan kelganligi haqida ayrim fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: "polis", markazida shahar, Korinf va Afina, Aristotel, Lokedemon, Sparta

Qadimgi Yunoniston tarixidan ma'lumki miloddan avvalgi IX-VIII chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mayda, bir-biridan ayro bo'lgan urug' jamoalari va qishloq jamoalari ijtimoiy-siyosiy tuzumga aylana boshlaydi. Bunda turli xil ijtimoiy guruhlar o'rtasiga qonli to'qnashuvlarga olib kelgan o'tkir qarama-qarshiliklar paydo bo'ldi va davlatchilik organlari shakllanadi hamda yuksak madaniyat yaratildi. Bu yangi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar esa polis nomini ola boshladi. Aynan mana shu polislar qadimgi yunon jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tashkilotining asosiy shakli hisoblanar edi. Polis atamasining o'zi bu tarixiy adabiyotlarda eng ko'p "shahar-davlat" deb tariflaanadi. Qadimgi yunon tilida "polis" so'zi albatta, "binolar, ko'chalar, mudofa inshootlari va boshqalar" va "erkin to'laqonli fuqorolar jamiyatiga ega", "shahar" manoni anlatadi [1, 44-45-b].

Shunday qilib yunon polislari jamoaning alohida tipi bo'lib, dehqon va shahar aholisini o'zida birlashtirgan yerga ishlovchilar - fuqaro jamoasi edi. Yunon polisining taraqqiyoti va shakllanishini belgilaydigan asosiy shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Eng avvalo, davlat va xususiy mulk birlashgan antik mulkchilik shaklida edi. Yunon jamoasi a'zosi bo'lgan fuqaro to'laqonli yerga egalik qilish huquqiga ega hisoblangan. Har bir fuqaro polis hududida yer ulushiga ega bo'lishi shart edi. Yerga egalikning oliy huquqi fuqarolar jamoasiga tegishli bo'lgan. Yerga egalik, dehqonchilik uzoq vaqt polis fuqarosini imtiyozi bo'lib qoldi. Polis fuqarosidan boshqa hech kim uning hududida yerga egalik qilish huquqiga ega emas edi hamda polis fuqarolar jamoasiga tegishli jamoa yerlariga egalik qila olmas edi. Ishlab chiqarish kuchlari II mingyillikka nisbatan mil.avv VIII-VI asrlarda yuqori darajada rivojlandi. Aynan shu davrda polislarda maktab

iqtisodiyoti vujudga keldi, Tovar ishlab chiqarish tezlashdi va Tovarga bo'lgan munosabat va bozor orqali mahsulot savdosi olib borilishi polis xo'jaligining asosiga aylandi. Yer egalari va dehqonlar bozorga sharob, yog', don, jun olib kelib sotishar edi. Sharqqa nisbatan polislardagi iqtisod keng imkoniyatlarni ochdi, ya'ni tovar-pul munosabatlarini rivojlantirdi. Bu jiati xo'jalik va jamiyat rivojlanish uchun sabab bo'ldi. Davlatga asosiy daromad podsho yerlaridan emas, balki qullar ishlagan xususiy yerlardan kelgan.

Polis hududi shahar va uni atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olar edi. Bu yunon polislar uncha katta bo'lmagan 100-200 kv. km bo'lgan hududni o'z ichiga olgan. Har bir polis aholisi 5 mingdan 10 ming kishini tashkil etib, ulardan taxminan 1-2 ming kishi fuqarolik huquqiga ega edi. Har bir yunon polisi suveren davlat bo'lib, o'z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat oiganlari, ibodatxona, teatr, xalq yig'ini o'tadigan maydoni, palestar, gimnasey, stadion kabi jamoat inshootlariga ega edi. [2, 246-247]. Bundan tashqari hududi va ahlisi bo'yicha yunon polistlari bir-biridan ajralib turgan. Polistlar orasida juda ham kattalari bo'lib, masalan ulardan Lokedemon yoki Sparta hududi 8400 km, aholisi tahminan 200-300ming kish atrofida bo'lgan. Afina polisining hududi 2,5 km.kv bo'lib 250-300 atrofida aholi yashagan. Eng ommalashgan va keng tarqalgan yunon polisining hududi 100-200 km. kv, ya'ni 10x10, 10x20 kmni tashkil etgan. Aholisi 5 mingdan 10 mingga bo'lib, uning tarkibi: bolalar, ayollar, chet elliklar va qullardan iborat bo'lgan. Aristotel aytganidek, polis hududi ko'zga ko'rinadigan bo'lishi kerak, sababi himoya qilish oson bo'ladi. Polis markazida shahar joylashgan. Bu shaharning vazifasi markaziy punkt vazifasini bajarish, ya'ni polisning barcha hududiga yordam jo'natish, o'rmon mahsulotlarini yetkazib berish, bu mahsulotlarni o'sha yerning o'zida qayta ishlash lozim bo'lgan [3, 148-149]

. Shahar va polislarning dengizga chiqish imkoniyati bo'lishi ular uchun juda katta ustunlikni ta'minlagan. Birinchidan, davlat xavfsizligini ta'minlagan, ikkinchidan, mahsulotlarni yetkazib berish qulay bo'lgan. Bu kabi qulayliklarga ega bo'lgan polis Aristotelning fikricha ideal ko'rinishdagi polis hisoblangan Odatda yunon polislari kichik-kichik davlat bo'lgan. Hududining kichik bo'lishi polis hududining boshidan oxirigacha borib-kelish oson bo'lishini ta'minlagan. Shahami bir necha soatlarda aylanib chiqish mumkin bo'lgan. Aholisi ham kam bo'lib ko'pchilik bir-birini tanigan. Markaz bitta bo'lib xalq shu yerda yig'ilgan.

Mil. av VI asrda qullar toifasi kam sonli bo'lgan. Qullar katta yer egalari ham kam bo'lib, hunarmandchilik do'konlarida ham ularning roli sezilarli bo'lmagan. Biroq polis iqtisodiyotining qiyinlashuvi, hunarmandchilik ishlab chiqarilishining rivojlanishi, avdo operatsiyalarining kengayishi natijasida qullar soni o'sib bordi. Yunon polislarning o'ziga xos muhim bir ijtimoiy tarkibi ijtimoiy kategoriya, ya'ni teng huquqli fuqarolar jamoasidan iborat. Polis fuqaroligini quyidagi toifalargina qabul qila olgan: Avloddan - avlodga o'tadigan yer merosxo'rlari; xalq xizmatchilari; falangadagi og'ir qurollangan

goplitlar [4, 14-b]. Boshqa shaharlardan kelgan, hattoki qo'shni polisdan kelgan kishilar ham bu, yerning fuqaroligiga kirmagan. Yer tomorqalarini yo'qotish fuqarolik huquqidan va fuqarolar jamoasidan mahrum bo'lishga olib kelgan. Savdo va hunarmandchilik rivojlangan markazlar Korinf va Afinada yer tomorqalaridan mahrum bo'lgan fuqarolar hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanishga majbur edi. Bunday odamlar fuqarolik huquqidan mahrum bo'lmas edi, lekin ikkinchi darajali fuqarolarga aylanar edi. Ular birinchi imkoniyatdayoq tomorqalarini qaytarib olishga harakat qilgan va shu bilan o'zlarining jamiyat oldidagi obro'larini tiklab olganlar. Polis hukumati yerdan ajragan fuqarolarga siyosiy yordam ko'rsatgan.

Xulosa o'nida shuni aytish lozimlim yunon polislarining shakillana boshlashi Yunoniston uchun juda kata ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki har bir fuqoro o'z polis hududida yer ulushiga ega bo'lgan, davlar budjeti uchun ham yaxshi daromad tushayotgan edi. Yana bir qulay tomonlari shuki Shahar va polislarining dengizga chiqish imkoniyati bo'lishi yunon aholisi uchun kaloniyalar orasidagi masofani qisqarishi hamda qulay savdo-sotiq qilish uchun ham kata ahamiyat kasb etgan va shu bilan bir qatorda aholi uchun juda katta ustunlikni bergan. Birinchidan, davlat xavfsizligini ta'minlangan, ikkinchidan, mahsulotlarni yetkazib berish qulay bo'lgan. Bu kabi qulayliklarga ega bo'lgan polislar aholi tomonidan rivojlantira borilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.J. Urakov jahon tarixi/ A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov, Q.A.Matxoliqov, S.I.Gabrieliyan, A.G.Xolliyev, O.A.Rajabov va boshq/ Darslik.- Toshkent: "Metodist nashriyoti", 2022. 368 bet.
2. Rajabov R.R. Qadimgi dunyo tarixi. (Sharq, Yunoniston, Rim). T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009, 440 bet.
3. D.J. Urakov, R.N. T. ursunov, A.A. Biykuziyev, B.B.X aynazarov Jahon tarixi /o'quv qo'llanma/. -Toshkent: "Innovatsiya Ziya" nashriyoti. 2020. 292 bet.
4. Turopov Yorqin. Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati; muharrir B.Ochilova- Toshkent: - , 2013. 92 b.

**MAKTAB O'QUVCHILARIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Ravshonov Mirjalol Ixtiyor o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 4 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonining metodik asoslari, samarali pedagogik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, metodika, ta'lim, tarbiya, fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy bilimlar.

Аннотация: В статье научно освещены методические основы процесса формирования правосознания и правовой культуры обучающихся в учреждениях общего среднего образования, эффективные педагогические подходы, пути использования современных образовательных технологий.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, методика, образование, воспитание, гражданская позиция, правовые знания.

Abstract: This article scientifically covers the methodological foundations of the process of forming legal awareness and legal culture in students in general secondary educational institutions, effective pedagogical approaches, and ways to use modern educational technologies.

Keywords: legal awareness, legal culture, methodology, education, upbringing, civic position, legal knowledge.

Bugungi globallashuv davrida fuqarolarning huquqiy bilim darajasi va huquqiy ongining yuksakligi mamlakat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir. Ayniqsa, yosh avlod vakillarida huquqiy madaniyatni shakllantirish – ularni qonunlarga hurmat bilan qaraydigan, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, ijtimoiy faol fuqarolar qilib voyaga yetkazishning muhim omilidir [1]. Shu sababli maktab ta'limida huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish, buning uchun metodik asoslarni to'g'ri belgilash bugungi kun talabiga aylandi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bu fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasidir. Ayniqsa, yosh avlodni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish va ularda huquqiy mas'uliyatni shakllantirish demokratik jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish metodikasiga ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Huquqiy ong va madaniyat tushunchasi

Huquqiy ong — bu shaxsning huquqiy bilimga ega bo‘lishi, huquqiy qadriyatlarni anglab yetishi va ularga amal qilishga ichki ehtiyoj sezishi bilan bog‘liq bo‘lgan ong shaklidir. Huquqiy madaniyat esa — huquqiy ongdan tashqari, shaxsning ijtimoiy-huquqiy munosabatlardagi xulq-atvori, huquqni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi amaliy faoliyatlar majmuidir.

O‘quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadi – ularning qonunlarni anglash, huquqlarini bilish va majburiyatlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu jarayon bolalarni yoshligidan qonuniylik va odillik tamoyillariga rioya qilishga o‘rgatadi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish yosh avlodning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun muhimdir [2]. Tadqiqotlarga ko‘ra (Kazimirschuk V. P., 1987), o‘quvchilarning huquqiy bilimsizligi ularning kelajakda ijtimoiy faolligini pasaytirishi va qonunbuzarlik xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli, boshlang‘ich ta‘limdan boshlab huquqiy ta‘lim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ongni shakllantirishda o‘qituvchining o‘rni.

Pedagog o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib borishi kerak: - Huquqiy bilimlarni berish: Dars jarayonlarida, sinfdan tashqari ishlarda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar mazmunini tushuntirish [3].- Interfaol metodlardan foydalanish: Rolli o‘yinlar, debatlar, muhokamalar orqali o‘quvchilarni huquqiy masalalarda mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish. - Hayotiy misollar asosida o‘rgatish: Mahalliy voqealar, OAVda yoritilgan holatlar orqali huquqiy ongni real hayotga bog‘lash.

Darslarda ochiq darslar tashkil qilish ham samarali hisoblanadi. Quyida ko‘rishimiz mumkin:

“Huquqiy savodxonlik kuni” ochiq darsi.

Dars mavzusi: “Huquq va burch — har bir fuqaroning hayotidagi asos”.

Maqsad:

- O‘quvchilarda huquqiy bilimlarni kengaytirish;
- Huquq va burch tushunchalarini mustahkamlash;
- Huquqqa hurmat, adolat va qonuniylik tamoyillarini tarbiyalash.

Asosiy tushunchalar: konstitutsiya, bola huquqlari, fuqarolik burchi, qonunga itoat

Darsda qo‘llaniladigan metodlar:

1. Savol-javob (brainstorming usuli)

Savollar:

Huquq nima?

Burch nima?

Siz qaysi huquqlarga egasiz?

Qonunlarni bilish nima uchun kerak?

> Usul: O'quvchilardan qisqa va tez javoblar olish, keyin izoh berish.

2. Rol o'yinlari (dramatizatsiya)

Topshiriq:

O'quvchilar kichik sahna ko'rinishlari tayyorlaydi. Masalan:

Bir guruh "Sud jarayoni"ni ko'rsatadi.

Bir guruh "Maktabda huquqiy nizolarni hal qilish" sahnasini ko'rsatadi.

> Ma'no: Huquqiy muammolarni hal qilishda qanday yo'llar mavjudligini amalda ko'rsatish.

3. Debat (bahs-munozara)

Mavzu: "Barcha fuqarolar qonun oldida tengmi?"

Tayyorlov:

2 ta guruh tuziladi: "Ha" va "Yo'q" tomonlar. Har ikki guruh dalillar tayyorlaydi va fikrlarini himoya qiladi.

> Ma'no: Tanqidiy fikrlash va huquqiy dalil keltirish ko'nikmasini rivojlantirish.

4. "Qonunlarni top" o'yini (interfaol o'yin)

Vazifa: O'quvchilarga turli huquqiy holatlar taqdim etiladi (masalan, maktabda tartib buzish, jamoat joyida odobsizlik). Ular qaysi qonun yoki qoidaga to'g'ri kelishini topib aytadilar.

> Misol:

Holat: "Maktab hududida o'zaro janjal."

O'quvchilar: "Maktab ichki tartib qoidalariga zid harakat."

5. "Mening huquqlarim" devor gazetasi (ijodiy ish)

O'quvchilar plakatlar tayyorlashadi.

Plakatda har bir bola o'z huquqlarini (o'qish, dam olish, so'z erkinligi va h.k.) yozadi va rasm chizadi.

> Ma'no: Huquqiy savodxonlikni tasviriy ifodalash orqali mustahkamlash.

Qo'shimcha materiallar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bolalar uchun soddalashtirilgan matni

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyadan parchalar

Huquqiy hikoyalar va masallar.

Wordwall.net dasturida yaratilgan o'yinlar.

Yakuniy qism:

O'quvchilarga "Bugun nimalarni o'rgandik?" degan savol bilan yakuniy muhokama qilish. Bunda wordwall.net saytida yaratilgan o'yin orqali o'quvchilar bilimi

baholanadi. O'quvchilar QR havola orqali mavzuga oid atamalar va ma'nosini to'ldirishadi:



Faol qatnashgan o'quvchilarga kichik sovg'a va diplomlar topshirish mumkin (ramziy tarzda). Bu esa ularda ko'proq bilim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantiradi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish metodikasi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish uzluksiz jarayondir. Unda quyidagi metodik yondashuvlar muhim o'rin tutadi:

- Tarixiy va adabiy manbalarni jalb etish: Adabiyot darslarida asarlar qahramonlarining huquqiy xatti-harakatlarini tahlil qilish. Huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha darsdan tashqari faoliyat.

a) huquqiy mavzularda insho va maqolalar yozish – o'quvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi;

b) huquqiy olimpiadalar va viktorinalar – bilimlarni tekshirish va rag'batlantirish vositasi sifatida ishlatiladi;

c) huquqiy mavzuda teatrlashtirilgan chiqishlar – o'quvchilarning huquqiy muammolarni tushunishini oshirishga yordam beradi.

- Ota-onalar bilan hamkorlik: Huquqiy madaniyatni oilaviy muhitda ham mustahkamlash.

1) Ota-onalar uchun huquqiy seminar va maslahatlar – farzandlarining huquqiy tarbiyasiga e'tibor qaratishlari uchun tashkil qilinadi;

2) Mahalla va huquqni muhofaza qilish organlari bilan uchrashuvlar – huquqbuzarliklarning oldini olish va o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

- Huquqshunoslar bilan uchrashuvlar: Mutaxassislar bilan suhbatlar, seminarlar tashkil etish orqali o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish. Interfaol metodlar orqali huquqiy ta'lim berish.

A. Munozaralar va bahs-munozaralar – o'quvchilarni muayyan huquqiy masalalar bo'yicha fikrlashga undaydi;

B. Vaziyatli topshiriqlar – real hayotga asoslangan huquqiy muammolar yechimini topish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi;

C. Rolli o‘yinlari – sud jarayonlari, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini o‘z ichiga olgan sahnalashtirilgan o‘yinlar orqali o‘quvchilar real huquqiy muhitni tushunib yetadilar [4].

Amaliy tajriba va natijalar. Ko‘pgina maktablarda “Huquqiy haftalik”, “Huquqiy savodxonlik kuni” kabi tadbirlar o‘tkazilib, o‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu kabi amaliy ishlar samaradorligini oshirish uchun ularni tizimli reja asosida olib borish zarur [5].

Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish maktab davridan boshlanishi zarur. Bu jarayonda pedagoglarning bilimdonligi, yondashuvlarining zamonaviyligi, ota-onalar bilan hamkorligi va metodik ta’minotning kuchli bo‘lishi muhimdir. Shu asosda shakllangan huquqiy ongli shaxs kelajakda adolatli jamiyat qurilishining faol ishtirokchisiga aylanadi. O‘quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish – jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon huquqiy ta’limni interfaol metodlar, texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik orqali yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladi. Pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi harakatlari natijasida huquqiy ongli va madaniyatli yoshlarni tarbiyalash mumkin. Shu boisdan, huquqiy ta’limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoev Sh. M. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Qodirov A. va boshqalar. “Huquqiy tarbiya asoslari”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Nazarov N. “Maktabda huquqiy madaniyatni shakllantirish metodikasi”. – Pedagogika jurnali, 2021, №2.
5. Xudoyberdiyev A. “Huquqiy ong va madaniyat: metodik yondashuvlar”. – Ilm Sarchashmalari, 2020, №3.

Ravshonov Mirjalol Ixtiyor o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi 4 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning shaxsiy rivojida o‘qituvchi va ota-onaning o‘zaro hamkorligi, bu hamkorlikning tarbiyaviy ahamiyati, shakllari va samaradorligi haqida ilmiy-nazariy asoslar bayon etiladi. Oila va maktabning uzviy aloqasi orqali bolalarda ijtimoiy faollik, axloqiy yetuklik, mustaqil fikrlash kabi sifatlar shakllanishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy rivojlanish, tarbiya, o‘qituvchi, ota-ona, hamkorlik, ijtimoiylashuv, pedagogik ta‘sir.

Abstract: This article describes the scientific and theoretical foundations of the mutual cooperation of teachers and parents in the personal development of young people, the educational significance, forms and effectiveness of this cooperation. The formation of such qualities as social activity, moral maturity, independent thinking in children through the integral connection of family and school is highlighted.

Keywords: personal development, upbringing, teacher, parents, cooperation, socialization, pedagogical influence.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические основы взаимодействия педагогов и родителей в развитии личности молодежи, воспитательное значение, формы и эффективность этого взаимодействия. Благодаря тесной связи семьи и школы происходит формирование у детей таких качеств, как социальная активность, нравственная зрелость, самостоятельность мышления.

Ключевые слова: развитие личности, воспитание, педагог, родители, сотрудничество, социализация, педагогическое воздействие.

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodning barkamol, ongli, mustaqil fikrlovchi shaxs bo‘lib kamol topishi muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bu jarayon esa, avvalo, oila va ta‘lim muassasasida olib boriladigan uzviy tarbiyaviy ishlar orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi va ota-onaning hamkorlikda harakat qilishi yoshlarning shaxsiy rivojida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — oila va maktab hamkorligining yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini tahlil qilishdir.

Shaxsiy rivoj tushunchasining mohiyati. Shaxsiy rivoj — bu bolaning aqliy, axloqiy, emotsional, jismoniy va ijtimoiy sohalaridagi o‘sishi, o‘zini anglash va jamiyatga moslashish jarayonidir. Bu rivojlanish ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta‘siri asosida shakllanadi [1]. Oila — bu birinchi tarbiya maktabi bo‘lsa, maktab — uni mustahkamlovchi ijtimoiy institutdir. Bu ikki muhim institutning o‘zaro hamkorligi esa bolaning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Maktab

o'quvchilari bilan quyidagi metodlarni bajarish orqali samarali dars tashkil qilishimiz mumkin:

“Monitoring va tahlil” metodini bajarish tartibi (7-sinflar misolida):

1. Maqsadni aniqlash

Vazifa: Monitoringni nima uchun olib borilayotgani belgilanadi.

Misol: “7-sinf o'quvchilarining o'z-o'zini baholash, ijtimoiy faollik va intizomga oid shaxsiy rivojlanish darajasini aniqlash.”

2. Asbob-uskunalarini tayyorlash

Vazifa: Monitoringda foydalaniladigan vositalar tayyorlanadi.

Misollar: O'quvchilar uchun psixologik test (masalan: “Men kimman?” testlari);

So'rovnoma varaqalari (motivatsiya, darsga munosabat, ota-onaning ishtiroki haqida);

Ota-onalar uchun anketalar (farzand tarbiyasi va darsdagi faoliyatga munosabat bo'yicha);

O'qituvchi tomonidan yuritiladigan “Shaxsiy rivoj kundaligi”.

3. Monitoringni o'tkazish

Vazifa: Belgilanadigan vaqt oralig'ida monitoring vositalari orqali ma'lumot yig'iladi.

Amaliyot: O'quvchilarga testlar va so'rovnomalar beriladi;

Ota-onalar bilan suhbatlar o'tkaziladi (masalan, “Farzandim qanday inson bo'lib ulg'ayayapti?” mavzusida);

O'qituvchi kundalik kuzatuvlarini yozib boradi (darsga tayyorgarligi, xulq-atvori, sinfdoshlar bilan munosabat).

4. Natijalarni tahlil qilish

Vazifa: Yig'ilgan ma'lumotlar asosida umumiy holat baholanadi.

Usul: a) Jadval va grafiklar tuzish orqali o'zgarishlar ko'rsatiladi; b) Ijobiy va salbiy jihatlar tahlil qilinadi; c) Farzandining yutuq va kamchiliklari haqida ota-onalarga xulosalar beriladi.

Misol: “Bahorgi monitoring natijasiga ko'ra, 7-“B” sinfida 65% o'quvchi o'zini yetarli darajada baholay olmayapti. 30% o'quvchi ota-onasi bilan muloqoti yetarli emas.”

5. Taqdimot va muhokama

Vazifa: Ota-onalar, o'quvchilar va pedagoglar bilan natijalarni baham ko'rish.

Amaliyot: - “Shaxsiy rivoj – sinf ko'zgusi” mavzusida ota-onalar yig'ilishi;

- O'quvchilar bilan individual suhbatlar;

- O'qituvchilar bilan pedagogik maslahat (metodbirlashma yig'ilishi).

6. Takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqish

Vazifa: Kuzatuv va tahlil asosida shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan amaliy ishlar belgilanadi.

Misol: Kam faollik ko'rsatgan o'quvchi uchun ota-ona bilan "haftalik rejalar" tuzish; Har oyda "O'zini eng yaxshi namoyon qilgan o'quvchi" burchagini tashkil etish; Ota-onalar bilan psixologik maslahatlar yo'lga qo'yish.

Xulosa: Monitoring va tahlil metodi – bu o'quvchining shaxsiy rivojini tizimli o'rganish, ota-ona va o'qituvchi ishtirokida muhim qarorlarni birgalikda qabul qilish imkonini beradi. 7-sinflarda bu metod nafaqat nazorat, balki tarbiyaviy yondashuv, ishonchli hamkorlik vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ota-onaning tarbiyaviy roli. Ota-ona bola hayotidagi ilk namuna, birinchi murabbiy hisoblanadi. Farzandning xulq-atvori, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi aynan oilada shakllanadi [2]. Ota-onaning tarbiyadagi ishtiroki quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- Farzand bilan yaqin muloqotda bo'lish;
- Ijoby shaxsiy fazilatlarni namoyon etish;
- Intizom va mas'uliyatni o'rgatish;
- O'qituvchi bilan doimiy aloqada bo'lish.

Ota-onaning faolligi bolaning o'zini qadrlashi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Bunda quyidagi metodlar bilan ishlashimiz mumkin:

Axborot-ma'rifiy metodlar.

Mazmuni: Ota-onalarni pedagogik bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish orqali ularni tarbiyaviy jarayonga faol jalb etish.

- Qo'llanilishi: a) Ma'ruzalar, seminar-treninglar;
- b) Tarbiyaviy broshyura va bukletlar tarqatish;
- c) Ota-onalar uchun onlayn vebinarlar.

Samarasi: Ota-onalarning pedagogik madaniyati oshadi, ular farzandi bilan ishlashda aniq yondashuvga ega bo'ladi.

O'qituvchining tarbiyaviy funksiyasi. O'qituvchi — bilim beruvchi bo'lish bilan birga, shaxsiy yetakchi, tarbiyachi va maslahatchi hisoblanadi [3]. U quyidagilar orqali shaxsiy rivojga ta'sir ko'rsatadi:

- a) Ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'rgatish;
- b) Bolaning ijtimoiy holatini aniqlab, to'g'ri yondashuvni tanlash;
- c) Mustaqil fikr yuritishga undash;
- d) Oila bilan doimiy aloqa o'rnatish.

O'qituvchining pedagogik mahorati bolaning o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

O'qituvchi va ota-ona hamkorligi shakllari. Tarbiyaviy jarayonda quyidagi hamkorlik shakllari samarador hisoblanadi:

- 1) Ota-onalar yig'ilishi;
- 2) Individual suhbatlar;
- 3) Uyga tashriflar (pedagogik monitoring);

4) Onlayn muloqot va maslahatlar (zamonaviy vositalar orqali);

5) Birgalikdagi tarbiyaviy tadbirlar: seminar, ekskursiya, tadbirlar.

Bunday faoliyatlar ota-onani o'z farzandining tarbiyasiga bevosita jalb etadi [4].
Monitoring va tahlil metodlarini ko'rib chiqamiz:

Mazmuni: Farzand tarbiyasidagi muvaffaqiyatlar va muammolarni aniqlash, muayyan yo'nalishda tuzatishlar kiritish.

Qo'llanilishi:

- So'rovnomalar va testlar (ota-onalar uchun);
- Diagnostika kartalari (o'quvchi holati bo'yicha);
- Tarbiyaviy kundaliklar yuritish.

Samarasi: O'qituvchi va ota-ona farzand shaxsiy rivojidagi o'zgarishlarni kuzatib boradi va aniq chora-tadbirlar belgilaydi.

Tarbiyaviy hamkorlik samaradorligi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlik:

- » O'quvchilarda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlarini;
- » Shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlikni;
- » Kam ijtimoiy muammo va nizolarni;
- » Emotsional barqarorlikni ta'minlaydi.

Amerikalik pedagog J. Epstinning tadqiqotlariga ko'ra, o'z farzandi ta'limi va tarbiyasiga faol jalb bo'lgan ota-onalarning bolalari ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha "Hamkorlikda qaror qabul qilish" metodi bilan tahlil qilamiz:

Mazmuni: O'qituvchi, ota-ona va o'quvchi o'zaro muhim masalalarni birgalikda muhokama qilib, umumiy qarorga kelishadi.

Qo'llanilishi:

- 1) O'quvchilarning xatti-harakatlari bo'yicha uch tomonlama yig'ilishlar;
- 2) Sinf ichki nizomlarini birgalikda ishlab chiqish;
- 3) "Sinf hayotida men" loyihasi orqali fikr almashuv.

Samarasi: Har bir ishtirokchi o'zini muhim his qiladi, shaxsiy mas'uliyat kuchayadi.

Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishi uchun o'qituvchi va ota-onaning uzviy hamkorligi muhim hisoblanadi. Bu hamkorlik orqali tarbiyaviy jarayon bir butun tizim sifatida samarali tashkil etiladi. Shu boisdan, pedagogik tajriba va amaliyotda maktab-oila aloqalarini mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, o'qituvchilarni psixologik va kommunikativ kompetensiyalari bilan ta'minlash zamonaviy tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmonov Q. "Tarbiyaning nazariy asoslari" – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

2. Ergasheva M. “Tarbiyaviy jarayonlarda oila va maktab hamkorligi” – “Ma’naviyat” jurnali, 2020.
3. Karimova D. “Psixologik-pedagogik asoslar” – TDPU, 2022.
4. UNESCO. “Parent and teacher collaboration: Best practices from international research.” – 2019.

**ZAMONAVIY O'QITUVCHINING SHAXSIY KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.**

Qilichev Shohruh Sherali o'g'li
Chirchiq Davlat Pedagogika
Unversiteti Gumanitar fanlar
fakulteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi, uni shakllantirish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. O'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan, balki uning kommunikativ, psixologik va axloqiy tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh o'qituvchini tayyorlashda individual yondashuv, uzluksiz o'qitish va o'z-o'zini rivojlantirish omillariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'qituvchi, shaxsiy kompetensiya, pedagogik mahorat, raqobatbardoshlik, innovatsion ta'lim, uzluksiz ta'lim, kommunikativ ko'nikmalar, kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. [1. 6-bet]

O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda chet el va mahalliy olimlarning mavzu sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlari, g'oyalari va ilgari surilgan asosli fikrlari muhimdir. Mazkur mavzu ilmiy-pedagogik tadqiq etilishidan oldin atamalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, mualliflik yondashuvi bo'lishini talab qiladi. Jumladan, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchasi keng qamrovli ma'noga ega bo'lib, uning mazmun va mohiyati turli soha olimlari tarafidan turlicha talqin qilinadi. Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar munosabati bilan "kompetensiya" va "kompetentlik" so'zlari yangi tusga kirdi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq ifodalashda N.A. Muslimov, A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, John Raven, Robert White, Richard Boyatzis, Lothar Reetz va boshqa olimlar katta hissa

qo'shganlar. Turli xil izohli lug'at va ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turlicha izohlanadi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da keltirilishicha: "kompetensiya" (lot. **Competo** – erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir. [2.2-bet]

So'ngi yillarda yurtimizning barcha sohalaridagi kabi ta'lim-tarbiya sohasini ham tubdan isloh qilishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sohasida kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi va unga asoslangan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishishular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedogoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakillantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur" deb ayatgan fikrlari bugunda o'z tasdig'ini topmoqda. Bu haqida fikr yuritish uchun ta'limda kompetensaviy yondashuvni metodologik asos sifatida tanlab olindi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqanholda xususiy kompetensiyalar belgilab olindi. [3. 39-bet] Shaxsiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy muammolar Moliyaviy qiyinchiliklar, O'qituvchilarning yetarli daromad topmasligi, o'z malakasini oshirish uchun resurs ajrata olmasligi. Jamiyatdagi o'qituvchilik kasbining qadrsizlanishi, ko'plab jamiyatlarda o'qituvchilarning obro'si va faoliyatiga e'tibor past bo'lib qolmoqda. An'anaviy usullardan voz kechishni istamaslik. Innovatsion yondashuvlarni joriy etishdagi muammolar ta'lim muhitidagi o'zgarishlarga moslashishdagi qiyinchiliklar, raqamli platformalar va yangi pedagogik usullarni samarali joriy qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo'qligi. Jamoaviy ish tajribasining sustligi, o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish va innovatsion usullarni sinab ko'rishga ishtiyoq pastligi kabilar.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni xis etuvchi tarbiyachi, tajribali notik, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, xis tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mexriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy xayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini

chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuklaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan xolda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak. [4. 103-bet]

Xulosa: Zamonaviy o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish dolzarb va murakkab jarayon bo'lib, bu yo'lda pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish hamda o'qituvchilarning o'z ustida ishlash madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda samarali natijalarga erishish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va pedagogik innovatsiyalarni qo'llash zarur hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kasbiy Kompetensiyalarni Rivojlantirish" O'quv-uslubiy majmua Toshkent – 2024-yil.
2. Maxkambay Artikbayev. Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi. Maqolasi
3. Kamola Sobitova, O'ktam Mansurov. Zamonaviy o'qituvchini tayanch kompetensiyalarini baholash mezonlari. Maqolasi.
4. D. Nafasov, Sh. Yakubova, X. Salabatova Ijtimoiy pedagogika Toshkent-2023-yil.

TA'LIM MODERNIZATSIYA QILISHDA SUNIY INTELEKTNI O'RNI VA RO'LI

Soatov Suxrob Abduburi o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Abstract; *This article examines the role of artificial intelligence in the modern education system and its impact on the educational process. Artificial intelligence (AI) technologies create opportunities for increasing educational efficiency, implementing personalized learning, individually developing students' knowledge, and developing new pedagogical methods. The article covers the main aspects of the application of artificial intelligence in education - personalized learning, facilitating student monitoring, virtual teachers and chatbots, interactive learning environments, and the use of virtual/augmented reality technologies. implementation of the application of artificial intelligence in the education system and the need to strike the right balance to eliminate its negative effects.*

Keywords; *Technology chat. education system, artificial intelligence, professional activities, virtual reality, smart machines, robotics*

Аннотация; *В статье рассматривается роль искусственного интеллекта в современной системе образования и его влияние на процесс обучения. Технологии искусственного интеллекта (ИИ) создают возможности для повышения эффективности образования, внедрения персонализированного обучения, индивидуального развития знаний учащихся и разработки новых педагогических методов. В статье рассматриваются основные аспекты использования искусственного интеллекта в образовании — персонализированное обучение, упрощение мониторинга успеваемости учащихся, виртуальные учителя и чат-боты, интерактивные среды обучения, использование технологий виртуальной/дополненной реальности.*

Ключевые слова; *Технологический чат. система образования, искусственный интеллект, профессиональная деятельность, виртуальная реальность, умные машины, робототехника*

Intellekt (lotincha intellectus – sezish, idrok etish, anglash, tushunish) yoki aql – psixikaning yangi vaziyatlarga moslasha olish, tajriba asosida o'rganish va eslab qolish qobiliyatidan iborat sifati. Hamda tushunish va mavhum tushunchalarni qo'llash va atrof-muhitni boshqarish uchun o'z bilimlaridan foydalanish. Aql-idrok – bu insonning barcha kognitiv qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan muammolarni o'rganish va hal qilishning umumiy qobiliyati: his qilish, idrok etish, xotira, tasvirlash, fikrlash, tasavvur qilishdir.[1]

Zamonaviy ta'lim tizimi dunyo miqyosida jadal ravishda o'zgarib, yangi texnologiyalarni o'z ichiga olmoqda. Bu texnologiyalar orasida eng muhimlaridan biri sifatida sun'iy intellekt (SI) alohida o'rin tutmoqda. Sun'iy intellekt bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga

olish, shuningdek, pedagogik metodlarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ishlatilmoqda. Sun'iy intellektning ta'limda qo'llanishi nafaqat o'quvchilarning bilimini oshirish, balki ta'lim jarayonining shaxsiylashtirilishi va modernizatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Sun'iy intellektning ta'limda qo'llanilishining birinchi muhim sohalaridan biri – bu shaxsiylashtirilgan ta'lim (adaptive learning). Hozirgi ta'lim tizimlarida har bir o'quvchi turli qobiliyatlar, ehtiyojlar va qiziqishlarga ega. Shunday ekan, ta'lim jarayonini bir xil dastur va metodlar bilan barcha o'quvchilarga taqdim qilish samarali bo'lmasligi mumkin. Sun'iy intellekt orqali ta'limni shaxsiylashtirish mumkin bo'ladi. Misol uchun, adaptive learning tizimlari o'quvchilarning individual o'rganish tezligini va o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini tahlil qilib, o'quvchilarga mos dars materiallarini taqdim etadi. Bu tizimlar o'quvchilarga o'ziga mos o'quv dasturini yaratish imkoniyatini beradi va ular faqat o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olishadi, shu bilan ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi.[1]

Sun'iy intellekt nafaqat inson aql-idrokining funksiyalarini modellashtirish bilan cheklanib qolmay, balki bilish jarayonining o'zini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. An'anaviy tafakkur paradigmalaridan farqli o'laroq, SI algoritmlar asosida ma'lumotlarni tahlil qilish, bashorat qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bu inson bilim faoliyatining chegaralarini kengaytiradi. Ta'lim jarayonida SI texnologiyalarining joriy etilishi o'qitish metodologiyasini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy ta'lim tizimi ketma-ketlik tamoyiliga asoslangan bo'lsa, sun'iy intellekt shaxsiylashtirilgan va adaptive o'qitish modellari orqali har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim berish imkoniyatini yaratmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari o'quvchilarning bilim olish sur'atini optimallashtirish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda shaxsiy o'quv yo'nalishlarini shakllantirishda samarali bo'lib, an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori natijalar bermiqda

Sun'iy intellektni ta'limda qo'llashning yana bir muhim jihati – virtual o'qituvchilar va chat-botlarni yaratishdir. O'quvchilar ba'zan o'z savollarini berish yoki murakkab mavzularni tushunishda o'qituvchilar bilan doimiy ravishda aloqada bo'lish imkoniga ega bo'lmasliklari mumkin. Shu bois, sun'iy intellekt asosida ishlovchi chat-botlar va virtual o'qituvchilar yaratilgan. Ushbu tizimlar o'quvchilarga savollarga tez va aniq javob berish, o'rganishda duch kelgan qiyinchiliklarni hal qilish, ma'lumotlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, matematikadan yoki fizika kabi murakkab fanlardan foydalanuvchilarga o'quvchilarni boshqarish va darslarni o'zlashtirishda yordam beradigan virtual o'qituvchilar xizmat qilishi mumkin. Chat-botlar ham o'quvchilarga doimiy yordam ko'rsatishi, ular bilan aloqada bo'lishi va bilimni mustahkamlashda yordam berishi mumkin.[2]

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ta'lim platformalari o'quvchilarga nafaqat an'anaviy darslarni, balki interaktiv va vizual materiallarni ham

taqdim etadi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy tajribalarni ham o'zlashtirishi mumkin. Masalan, o'quvchilar tarixiy davrlarni virtual reallikda ko'rishlari, biologik jarayonlarni simulyatsiya qilishlari yoki geografik ma'lumotlarni kengaytirilgan haqiqatda o'rganishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, o'rganishni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi.

Biroq, sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanilishiga qarshi ba'zi salbiy ta'sirlar mavjud. O'qituvchining o'quvchilar bilan shaxsiy aloqasi va emotsional yondoshuvi ta'limda juda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ortib borishi bu jihatlarni kamaytirishi mumkin. O'qituvchilarning o'zaro aloqasi, rag'batlantirish va psixologik yordam berish, o'quvchilarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar sun'iy intellekt tizimlari to'liq ravishda o'qituvchining rolini almashtirsa, o'quvchilarda psixologik va ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektning keng tarqalishi texnologik tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin. Rivojlangan mintaqalarda va shahar hududlarida texnologiyalarga kirish oson, ammo kichik shaharlarda va qishloq hududlarida zarur infratuzilma yo'qligi ta'limda tengsizliklarni yaratishi mumkin. Masalan, Carnegie Learning tomonidan ishlab chiqilgan SI-tizimlar o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan topshiriqlarni tavsiya etishi natijasida ularning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan. O'quvchilarning barcha qatlami sun'iy intellekt texnologiyalaridan teng foydalanmasliklari ta'limdagi raqobatni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanishning tenglik nuqtai nazaridan baholanishi zarur. [3]

Sun'iy intellektning ta'lim tizimida keng qo'llanilishi xavfsizlik va maxfiylik masalalarini ham keltirib chiqaradi. O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va o'quv faoliyatlari haqida to'plangan ma'lumotlar, agar xavfsiz saqlanmasa, ular shaxsiy hayotga tahdid solishi mumkin. Bu ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi yoki uzilishi o'quvchilarning maxfiyligiga zarar etkazishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektning ta'lim sohasida qo'llanilishi uchun maxfiylikni ta'minlash va xavfsizlikni kuchaytirish zarur.

Selwyn (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa sun'iy intellekt asosida shakllangan ta'lim platformalarining afzalliklari va ularni joriy etishdagi muammolar tahlil qilingan. Uning natijalariga ko'ra, raqamli ta'lim vositalari bilim olish jarayonini moslashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ularning to'liq samaradorligini ta'minlash uchun texnologik infratuzilma va pedagogik yondashuvlar hamohang bo'lishi zarurligi ta'kidlangan. Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi salbiy ta'sirlariga qaramay, bu texnologiyaning imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Sun'iy intellekt yordamida ta'limni shaxsiylashtirish, o'quvchilarni individual ravishda kuzatish va ta'limni interaktiv qilish mumkin. Bu ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va ishonchli qiladi. To'g'ri va

ehtiyotkorlik bilan qo'llanilsa, sun'iy intellekt ta'lim tizimining sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, uning ijobiy natijalariga erishish uchun texnologiyalarning salbiy tomonlarini bartaraf etish, ehtiyotkorlik bilan yondoshuvni ta'minlash zarur. Ta'limda sun'iy intellektni joriy qilishda muvozanatni saqlash va ta'lim tizimining barcha qatlamlarida teng imkoniyatlar yaratish katta ahamiyatga ega.[4]

Xulosa

Sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanilishi ta'lim jarayonini sezilarli darajadasamarali va interaktiv qilish imkonini yaratadi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim, o'quvchilarning o'rganish jarayonini individual tarzda qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarga yordam berish va yangi pedagogik metodlarni joriy etish kabi imkoniyatlar sun'iy intellekt orqali amalga oshirilishi mumkin. Virtual o'qituvchilar, chat-botlar va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari ta'limni qiziqarli va samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Biroq, sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanilishi insoniy yondoshuvning kamayishi, texnologik tengsizliklar va maxfiylik xavfsizligi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, sun'iy intellektni ta'limda to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan joriy etish zarur. Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun texnologiyalarning salbiy ta'sirlarini minimallashtirish va barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish muhimdir. To'g'ri qo'llanilganda, sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirishda kuchli vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normo'minov Anvarjon Asqar o'g'li. (2024, January 8). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA SUN'IY INTELLEKTNI O'RNI.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.
<https://static.googleusercontent.com/media/edu.google.com/en//pdfs/Intelligence-Unleashed-Publication.pdf>
3. Holmes, Wayne. "Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning." Center for Curriculum Redesign (2019).
4. Bunyod Radjabov. (2025). Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llash. «yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot» Jurnal,

TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR O'QUV-BILISH KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH

Suvanova Dildora Kenjabay qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqola Oliy ta'lim tizimi talabalarning o'zini-o'zirivojlantirishda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish, mustaqil vakreativfikrlash zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kredit modultizimi.*

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'liminitashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish,nazorat qilish va baholash tartibi» to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarimus- taqil va kreativ fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir.O'zbekistonRespublikasining oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalgaoshirishgabosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.Talabalarda mustaqil ta'limolish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizim- li tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarinishakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishgaqaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliyko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayonigaxalqarota'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik textexnologiyalarni joriyetishasosiy o'rinni egallaydi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarningtashkilotchilikqobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni echimi sifatida shuni aytishimizmumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqichkredit-modul tizimiga o'tkazishdir. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholashmodelihisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkabtizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reytingasosidabaholash. Shunday ekan, kredit – modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqato'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadanmustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozoritalabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy

ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Ta'lim muassasalarida talaba mustaqil ishining tashkil etishdan asosiy maqsaddir.[1]

Kompetentlik yondoshuvining asoschilaridan biri bo'lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: "biz ko'proq va kamroq kompetentli fermerlar, o'qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menedjerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o'z ishining ustalari namoyish qilgan aynan siyosiy xulq-atvor eng muhim bo'lib chiqdi. Aksincha, odamlarning bevosita xizmat burchlari doirasidan tashqaridagi ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy cheklashlarga nisbatan biron bir chora-tadbirlarni ko'rishga layoqatsizligi va hohishi yo'qligi zamonaviy jamiyatda kompetentli bo'lmagan kasbiy xulq-atvorning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi, vaholanki, aynan ular inson bu doira ichida nima qila olishini aniqlaydilar. pedagog "boshqaruvchi", "hamkor" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni, hamkorlik qilish, demokratik ravishda ta'sir o'tkazish, yordam berish, ruhlantirish, talabaning shaxsiy tashabbuslariga e'tiborli bo'lish, uning shaxsini rivojlantirishga intilish pozitsiyasini egallaydi; talaba pedagoglar va boshqa talabalar bilan faol hamkorlik qilishga, birbirini qo'llab-quvvatlash va o'zaro ma'suliyatlilik muhitini yaratishga yo'naltirilgan; ta'lim oluvchilar uchun ta'lim va tarbiyani tashkil etishning guruhli shakllari orqali shaxslararo munosabatlar va muloqatning xilma-xil shakllarini amaliy ravishda o'zlashtirishlari, hamkorlikda ishlash va ijod qilish quvonchini his etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi harakat va xulq-atvorlarning oldindan belgilab qo'yilgan namunasiga mosligini baholashdan voz kechish. Inson tabiatidan kelib chiqqan holda, pedagogik jarayonning mazmuniy tuzilmasini aks ettiradigan, ta'limning maqsadini qo'yishdan boshlab to natijaga erishishgacha bo'lgan faoliyatni tashkil etishning barcha bosqichlari loyihalalanadi. Jamoaviy-individual ravishda tafakkur etish texnologiyasida rivojlantiruvchi makon–tabiiy ijtimoiy muhit hisoblanadi, unda umumlashtirilgan (jamo), shaxslararo (qiziqishlarga ko'ra ijodiy birlashmalar), kasbiy (predmetli mazmun) dan iborat bo'lgan munosabatlar tizimida bilim olish va o'quv-kasbiy faoliyatga oid muammolar hal etiladi, shuningdek, hayotiy muammoli vaziyatlarni boshdan kechirib ko'riladi.[2]

Bo'lajak pedagoglarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi. O'qituvchilar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini Qo'llash (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni bo'lajak pedagoglar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim. Qolaversa, kreativ xarakterga ega muhitdagina bo'lajak pedagoglar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, O'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlashni boshlashadi. Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida ma'lum bir davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak: kreativlikni rivojlanish davri – ma'lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi

yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi; kreativlikni rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi. Shunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda kreativlik sifatleri hamda ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lajak pedagoglar boshqa bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi, o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi, mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi; muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi. Pedagoglar kreativlik sifatleri bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhleri:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta’minlovchi (protsesssual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar.

Talabaning kreativligini rivojlantirish o‘quv jarayonini ijodiy faoliyat modeli sifatida yaratish zarurligini nazarda tutadi. Oliy ta’lim nazariyasi va amaliyotida talabaning kreativligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari kasbiy ta’limni mazmunli, muammoli vaziyat kontekstida tadqiqot faoliyati sifatida tashkil etish, yechimlarni tanlash, usullarni aks ettirish, o‘zini ijodkor shaxs sifatida bilish, shaxsiy kasbiy tayyorgarlik dasturlarini yaratish, o‘quv jarayonini tashkil etishning moslashuvchan modellariga o‘tish zarurligini belgilaydi. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida quyidagi eng samarali metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:[3]

Xulosa

Bizning nazarimizda, mustaqil ta’lim yoshlarni ertangi kunningmurakkabmuammolariga qiynalmas dan javob topishga tayyorlashning omili bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarning mustaqil bilim olishlari oliy o‘quv yurtlarida o‘quv reja va dasturda aniq belgilangan. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassisning kompetentligi shakllanishi uchun ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligi, izchilligi, tizimlilikikatta ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Ayniqsa hozirgi axborotasrida talabaning axborot kommunikatsion texnologiyalar dan erkinfoydalanish va chet tilida muloqot qilishi ham uning to‘laqonli mutaxassis bo‘libyetishishida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliev I.T. Pedagogning kasbiy kompetentligi // Uzluksiz ta'limtizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolarivaistiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 55 b
2. G.Djurayeva . M.sidikhodjayeva- O'quv uslubiy qo'llanma Toshkent -2024
Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

To'rayeva Gulhayo Temirqul qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Sherboyeva Aziza Tairjan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik usullar, ularning samaradorligi va o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, amaliy tajribalar va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tabiiy fanlar, boshlang'ich sinf, zamonaviy metodlar, STEAM, tajriba, laboratoriya, interfaol ta'lim.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga chuqur bilim berish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tajribalar asosida bilim olishlarini ta'minlash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va ularni ilmiy kuzatishlarga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan tabiiy fanlar darslari o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, STEAM yondashuvi, tajriba asosidagi va interfaol metodlar orqali o'quvchilar tabiat hodisalarini chuqurroq anglashga erishadilar. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida turli zamonaviy usullardan foydalanishi muhim hisoblanadi [1].

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda quyidagi zamonaviy usullar keng qo'llanilmoqda:

STEAM yondashuvi - o'quvchilarda tizimli fikrlash, ilmiy kuzatish va kashfiyot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, o'simliklarning o'sish jarayonini tajriba asosida kuzatish va bu jarayonni chizmalarda aks ettirish orqali san'at bilan integratsiya qilish mumkin [2]. STEAM yondashuvining mohiyati:

1. STEAM (Science – ilm-fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) yondashuvi — fanlararo integratsiyalashgan ta'lim shakli bo'lib, u o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, muammolarni tahlil qilish, amaliy yechim topish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tabiiy fanlarni STEAM laboratoriyalarda o'qitish bu usulning eng samarali shakllaridan biridir.

STEAM laboratoriyaning afzalliklari:

- Kuzatish va tajriba asosida o'rganish: O'quvchilar ilmiy nazariyalarni laboratoriyada amaliyot orqali tekshiradilar (masalan, suvning 3 holatini kuzatish);
- Fanlararo integratsiya: Tabiatshunoslik darsida suv aylanishini o'rganish jarayonida fizika (bug'lanish), san'at (modellashtirish), matematika (o'lchash) va texnologiya (interaktiv qurilmalar) birlashtiriladi;
- Motivatsiyani oshirish: STEAM darslari ko'proq qiziqarli, jonli va hayot bilan bog'langan bo'ladi;
- Ijodiy yondashuv: O'quvchilar o'z loyihalarini ishlab chiqadilar, tajriba asosida natijalar chiqaradilar, bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Amaliy usullar:

a) *Laboratoriya tajribalari orqali.*

- "Suvning bug'lanishi" tajribasi - laboratoriyada har xil haroratda suvni qizdirib, bug'lanish tezligini aniqlash;
- "Fotosintez" mavzusida o'simlik barglarini kuzatish, yorug'lik ta'sirini o'rganish;
- "Magnit maydon" mavzusida magnitlar bilan tajriba o'tkazish.

b) *STEAM loyiha ishlari.*

- "Mini issiqxona" yasash - shaffof plastik, tuproq va urug'lar orqali issiqxonaning qanday ishlashini tushunish;
- "Ekologik muvozanat" modeli - maket yasab, ifloslanish, suv aylanishi, hayvonlar zanjiri kabi tushunchalarni amalda ko'rsatish.

c) *Raqamli laboratoriyalar.*

- Virtual tajribalar, simulyatsiyalar orqali darslarni tushuntirish (PhET, ExploreLearning, Labster kabi dasturlar).

3. O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar:

- Har bir darsga muammo qo'yish (masalan: "Nega muz suzadi?") va o'quvchilar bilan kashfiyot asosida unga yechim topish;
- Jamoaviy ishlashni yo'lga qo'yish — kichik guruhlarda tajriba o'tkazish, natijalarni solishtirish.
- Hisobot yozishni o'rgatish — oddiy laboratoriya daftarchasi yuritish orqali ilmiy fikrlashni shakllantirish.

STEAM laboratoriyalar orqali tabiiy fanlarni o'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning amaliy tajriba, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. O'qituvchidan esa zamonaviy metodlarni chuqur o'zlashtirish va darslarni hayot bilan bog'lay olish mahoratini talab etadi.

Tajriba asosidagi ta'lim. Bu usul orqali o'quvchilar mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy asosda ham o'zlashtiradilar. Oddiy tajribalar (suvning bug'lanishi, yorug'likning qayrilishi) orqali ularning ilmiy tushunchalari boyiydi. STEAM laboratoriyalar dars

jarayonida o'quvchilarga ilmiy tajribalarni amalda bajara olish, kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Quydagi usullar samarali hisoblanadi:

- Tajriba asosidagi o'rganish: masalan, suvning bug'lanishi, yorug'lik sinishi, o'simliklarning o'sish jarayonini laboratoriyada kuzatish;
- Fanlararo loyiha ishlari: "Mini issiqxona" yasash, "Yer atmosferasi modeli" yoki "Tabiat muhofazasi uchun qurilma" kabi amaliy loyihalarni bajarish;
- Multimedia va raqamli texnologiyalar: virtual laboratoriyalar (Labster, PhET kabi), 3D modellar, video tajribalar orqali mavzularni mustahkamlash [3].

O'quvchilarning faolligini oshirish usullari

- a) Eksperimentlar asosida kashfiyot qilish;
- b) Guruhlarda ishlash orqali tajriba natijalarini solishtirish va hisobot tuzish;
- c) "STEAM portfoliolar" yuritish – o'quvchilar o'z tadqiqotlarini rasmlar, yozma izohlar va grafikalar orqali bayon etadilar;
- d) Baholash mezonlarini aniq belgilash – jarayon, natija va jamoaviy ishtirokni baholash;
- e) Interfaol metodlar (klaster, "Aqliy hujum", "Insert", "Guruhlar bilan ishlash"): o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlash va fikr almashishga undaydi;
- f) Raqamli texnologiyalar: video tajribalar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar orqali darslarni yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin.

O'quvchilarning qiziqishini oshirish yo'llari.

O'yin orqali o'qitish - kichik yoshdagi bolalar o'yin orqali tezroq o'rganadilar. Masalan, "Tabiatni asraylik" nomli rolli o'yinlar orqali ekologik tarbiya berish mumkin. Tabiiy obyektlar bilan ishlash ya'ni daraxt barglari, toshlar, urug'lar, suv, qum kabi obyektlar orqali laboratoriya ishlarini tashkil qilish. Ekskursiyalar bilan darsni maktab hovlisida, bog'da, hayvonot bog'ida o'tkazish orqali real tajribaga asoslangan ta'lim beriladi .

Amaliy misollar va metodik tavsiyalar.

Tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish juda samarali hisoblanadi [4]. Interfaol metodlar – bu o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi, bilimni faqat tinglab emas, balki o'rganib, fikr yuritib, o'z fikrini himoya qilish orqali egallashga yo'naltirilgan metodlardir. Tabiiy fanlarda bu metodlar orqali o'quvchilar atrof-muhit, tabiat hodisalari, moddalarning xossalari haqida amaliy bilim va tushunchalarni chuqurroq o'zlashtiradilar.

Afzalliklari:

- a) O'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadilar;
- b) Jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi;
- c) Fanlarga qiziqish ortadi;
- d) Tabiiy jarayonlarni chuqur tushunishga zamin yaratadi;
- e) O'rganilgan bilimlar hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanadi.

“Klaster” usuli.

Klaster usuli – bu biror mavzu atrofida asosiy tushunchalarni guruhlash, tizimlashtirish va tafakkurni faollashtirishga xizmat qiluvchi usuldir. Odatda, dars boshida, yangi mavzuga kirishda yoki mavzuni mustahkamlashda qo‘llanadi.

Dars mavzusi: “Atmosfera va uning tarkibi” (4-sinf tabiiy fanlar)

Bosqichlar:

1. Boshlanishi: – Dorskaga yoki interaktiv dorskaga “Atmosfera” degan so‘z yoziladi. – O‘quvchilardan shu so‘z bilan bog‘liq fikrlarni aytish so‘raladi (masalan: havo, kislorod, shamol, ifloslanish, yomg‘ir, bosim va h.k.).

2. Tuzilishi: – Har bir fikr “shoxcha”lar orqali yoziladi (klaster ko‘rinishida). – O‘quvchilar ushbu tushunchalar qanday bog‘liqligini muhokama qiladilar.

3. Tahlil: – O‘qituvchi har bir tushuncha ustida batafsil to‘xtaladi, fanga bog‘lab izoh beradi. Misollar, tajribalar bilan boyitiladi.

4. Mustahkamlash: – O‘quvchilar kichik guruhlarda yangi mavzuga oid klasterlarni mustaqil tuzadilar yoki topshiriq sifatida uyga beriladi.

Xulosa. Klaster usuli orqali o‘quvchilar mavzuni tahlil qilish, muhim tushunchalarni ajratib olish, ularni tartibga solish va ular o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish kabi muhim fikrlash amaliyotlarini bajaradilar. Tabiiy fanlarda bu metod o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish va muammoga fanlararo yondashuv bilan qarash imkonini beradi.

“Akvarium” usuli.

“Akvarium” usuli – bu guruhli muhokama shaklidir. Bunda kichik bir guruh muayyan mavzu yuzasidan ochiq muhokama olib boradi, qolgan o‘quvchilar esa ularni kuzatadi va tahlil qiladi. Bu metod muloqot, tanqidiy fikrlash, tahliliy tafakkur va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Tatbiq qilish:

Mavzu: “Yerning tabiiy boyliklari va ularning turlari” (4-sinf tabiiy fan)

Maqsad: O‘quvchilarda tabiiy boyliklar, ularning turlari, muhofaza qilish yo‘llari haqida chuqur tushuncha shakllantirish.

Dars bosqichlari:

1. Tayyorgarlik bosqichi:

O‘quvchilar 2 ta guruhga bo‘linadi:

Ichki guruh (akvarium ichida): 5–6 nafar o‘quvchi muhokamada faol ishtirok etadi.

Tashqi guruh (kuzatuvchilar): qolganlar muhokamani kuzatadi, eslatmalar oladi.

2. Muhokama mavzusi:

Misol uchun, savol: “Nima uchun ayrim tabiiy boyliklar tugab boryapti va biz ularni qanday muhofaza qilishimiz mumkin?”

Ichki guruh ushbu savol bo'yicha o'z fikrlarini erkin, navbatma-navbat aytadi, bir-birini inkor etmaydi, misollar keltiradi. O'qituvchi faqat yo'naltiruvchi savollar bilan ishtirok etadi.

3. Tahlil va baholash:

Tashqi guruh muhokamani tahlil qiladi: kim yaxshi dalil keltirdi, kim noto'g'ri tushunchaga ega bo'ldi, qanday misollar foydali bo'ldi.

O'qituvchi yakuniy xulosa qiladi, muhim fikrlarni umumlashtiradi.

Afzalliklari:

- O'quvchilar o'z fikrini ochiq ifoda qilishni o'rganadi;
- Har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi;
- Muhokama va tanqidiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi;
- Tabiiy fanlarga ijtimoiy yondashuv paydo bo'ladi (masalan: ekologik muammolar, tabiatni muhofaza qilish).

Xulosa. "Akvarium" usuli tabiiy fanlarda o'quvchilarni chuqur tahlilga undaydi, mavzuga har xil nuqtai nazardan yondashishni o'rgatadi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o'z fikrini muloqot orqali himoya qilish, boshqalarning fikrini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Zamonaviy usullar orqali tabiiy fanlarni o'qitish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tajriba asosidagi va integratsiyalashgan ta'lim orqali o'quvchilar tabiat hodisalarini chuqurroq tushunishga erishadilar [5]. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida turli innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ofurov M., Raximov R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2019.
2. Malikova N. STEAM yondashuvi asosida dars tashkil etish. – "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, 2022, №4.
3. Zokirova D. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: Ilm Ziya, 2020.
4. Xolbo'tayev B. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish. – T.: Fan, 2021.
5. www.ziynet.uz – O'zbekiston ta'lim portali.

Akademic Journal of Educational Research (AJER) International scientific journal
Volume 4 Issue 4 April 2025 ajeruz.com
**IMKONIYATI CHEKLANGAN VA NOGIRONLIGI BO'LGAN
BOLALARGA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI
TASHKIL QILISH**

Xasanov Akramjon Abduljalilovich
NamDPI Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti

Abduljalilov Bobir Akramjon o'g'li
*Namangan viloyati boshqarmasi tasarufidagi aloxida
ta'lim extiyojlari bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
49-sonli maktab internati tarbiyachisi*

[e-mail: asilbekmahmudjonov19981126@gmail.com](mailto:asilbekmahmudjonov19981126@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan bolalarga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilish, shuningdek, ularga mashqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, ularni iqtidoriga ko'ra sport turlariga yo'naltirish haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan bolalar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sport, jismoniy mashqlar, adaptiv sport, usullar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации физического воспитания и спортивных занятий для детей с ограниченными возможностями и инвалидностью в нашей стране. Также обсуждаются создание необходимых условий для выполнения физических упражнений и направление детей в различные виды спорта в соответствии с их способностями и талантами.

Ключевые слова: дети с инвалидностью, занятия по физическому воспитанию, спорт, физические упражнения, адаптивный спорт, методы.

Abstract: This article discusses the organization of physical education and sports activities for children with disabilities and special needs in our country. It also addresses the creation of appropriate conditions for performing exercises and guiding these children towards various sports based on their abilities and talents.

Keywords: children with disabilities, physical education activities, sports, physical exercises, adaptive sports, methods.

Dolzarblik. Jamiyatda va butun yer yuzida imkoniyati cheklangan va nogironligi bor jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar mavjud. Ular oddiy bolalalr kabi, jismoniy tarbiya sport bian muntazam ravishda shug'ullanishlari kerak albatta. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar orasida kuchli zakovat egalari, ma'naviy boy, ilmiy salohiyatini oshirishga, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan ko'plab yoshlar topiladi. Qo'l-oyoqsiz, ko'zi yoki organizmining qaysidir a'zosi ishlamasada, ma'lum sport turi bo'yicha shug'ullanib mamlakatimiz bayrog'ini yuksaklarga kutarilishiga o'z hissalarini qo'shishmoqda [2].

Tadqiqotning maqsadi. Yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son va 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son farmonlariga muvofiq jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish hamda ular o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini yanada oshirish, barcha turdagi sport ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sport bo'limlarini bosqichma-bosqich tashkil etish hamda iqtidorga ega bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni tanlab olish, ularni sport turlariga yo'naltirish, tayyorlash hamda oliy sport mahoratiga erishishini ta'minlovchi uzluksiz yagona kompleks tizimni joriy etish, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida maxsus ta'lim muassasalarida hamda mahallalarda sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish, barcha turdagi sport ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishlari uchun zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirishga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining 4.4-bandida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'yicha aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi belgilab berilgan. Ushbu Farmonda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash kabi muhim vazifalar ko'zda tutgan [4,5,6].

Tadqiqotning usullari va tashkil etilishi. Imkoniyati cheklangan bolalar jismoniy tarbiya va sport bilan mutaxassis yordamida tizimli shug'ullanishlari ularning to'g'ri rivojlanishiga katta yordam beradi. Bu borada mutaxassislardan malakali bilim, yuqori iqtidor hamda individual yondashuv talab qiladi, shundagina kerakli maqsadga erishiladi albatta.

Adaptiv jismoniy tarbiya - o'zining oldiga bosh maqsad qilib jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni nafaqat jismoniy mashg'ulotlar va fizioterapetiv usullar yordamida davolashni olib borish, balki ularning ijtimoiylashuvi hisoblangan ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Adaptiv jismoniy tarbiyaning maqsadi funktsional imkoniyati cheklangan insonlarni jismoniy va ijtimoiy sharoitga moslashishga o'rgatishdan iborat.

Adaptiv jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

1. ruxiy rivojlantirish, atrof muxitni to'g'ri qabul qila bilish;
2. organizmni funktsional xolatini oshirish;
3. kasallikni, uning asoratini maxsus usullari yordamida bartaraf etish;
4. ijobiy ruxni tiklab, salbiy ruxni yo'qotish;
5. organizmning tayanch funksiyalarini rivojlantirish (chiniqtirish);
6. organizmning faol funktsional holatini saqlash, psixologik va jismoniy qiyinchiliklarini engish borasida muxim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni oshirib borish;
7. barkamol jismoniy rivojlanish:

Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi. Adaptiv jismoniy tarbiyada xuddi jismoniy tarbiya va sportdagi kabi vositalardan foydalaniladi: jismoniy mashqlar, harakatli va sport o'yinlari, chiniqtirish vositalari, xoreografiya unsurlari va shunga o'xshash vositalar. Mashqlar, tabiatni sog'lamlashtiruvchi kuchlari, gigienik omillar vositalaridir. Nogironlarning jismoniy tarbiyasida bu tizimning barcha vositalari keng qo'llanilishi lozim, vaxolangki ayni paytda u yoki bu nogironlar guruhi uchun korrektsiyalash va kompensatsiyalash vazifalari qat'iy ravishda qayta ishlab chiqilishi va qo'llanishi kerak. Nogironlarning jismoniy tarbiya shakllarini quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

Harakat xususiyatlarining sifatlari buyicha : a) kuch-quvvat mashqlari b) tezkor mashqlar, c) tezlik-kuchlilik mashqlari, d) umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun mashqlar, e) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar, f) muvozanatni rivojlantirish uchun mashqlar.

Harakat xususiyati faoliyati bo'yicha : a) tsikllik xususiyatdagi jismoniy mashqlar, b) atsikllik xususiyatdagi jismoniy mashqlar, c) atsikllik va tsikllik xususidagi jismoniy mashqlarni o'z ichiga oluvchi aralash mashqlar. Turlar bo'yicha a) gimnastika mashqlari, b) suzish, c) sport va harakatli o'yinlar, d) turizm va sayohatlar, e) og'ir atletika va atletik gimnastika elementlari, f) engil atletika elementlari, g) eshkakli sport elementlari, h) velosport elementlari, i) mashqlar va nogironlar aravachasida o'yinlar va boshqalar.

Nogironlar jismoniy madaniyatining asosiy shakllari quyidagilardir :

1. Jismoniy mashqlar va mustaqil mashg'ulotlar (ertalabki gigienik gimnastika, sayrlar, yaqin turizm, korrektsion mashg'ulotlar va boshqalar)
2. Jismoniy tarbiya va sport bilan tashkillashtirilgan guruhlar va sektsiya mashg'ulotlari (davolash sanatoriya va reabilitatsion markazlarda mavjud sport turlari, guruh va sektsiyalarda jamoat jismoniy tarbiya tashkilotlarida, ishlab chiqarish gimnastikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlar, maishiy xizmatdagi shaxslar uchun DJT va korrektsion mashqlar va boshqalar)
3. Nogironlar sporti (mashq, turli xil sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish) Nogironlarning harakat faoliyatiga uy sharoitida har kuni jismoniy mashqlar

va mustaqil mashg'ulotlar kiritilishi muhim. Kun davomida 15-30 daqiqali 3-4ta mashg'ulot o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir dars o'zining aniq maqsadi, vazifalari, o'tkazilish metodlari, o'quv dasturi, reja va moddiy texnik ta'minoti va boshqa ixtisoslik xujjatlariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari, didaktik talablarga mos kelgan xolda tashkillashtirilishi, vaqtni maqsadga muvofiq taqsimlashi, eng ko'p samara beradigan metodlarni qo'llashi talab etiladi. Dars davomida o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati, faolligi, mustaqilligi hamda o'zaro o'tkaziladigan suxbatlar ham to'g'ri tashkillashtirilishi kerak.

Darsga qiziqishni tashkil etish usullari:

- Diqqatni jamlash uchun tanlangan mashqlar berish;
- Avval o'tilgan mavzularni qaytarish uchun vazifa berish;
- Xotira va kuzatuvchanlikka mashqlar;
- Yangi darsga mo'ljallangan vazifalarni o'rganish uchun mashqlar;
- O'tgan darsda uy vazifasini bajarish turlarini muxokama qilish (bu vazifa aynan

bir muammoga tegishli bo'lishi, har bir o'quvchi uchun o'ziga xos qiziqarli va bajarish imkoni bor bo'lishi kerak).

Dars mashg'ulotlari aniq tuzilishga ega bo'lib, tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlardan iborat.

Tayyorgarlik qismining vazifasi - o'quvchilarni uyushtirish, dars vazifasini tushuntirish, shug'ullanuvchilar organizmini bo'lajak jismoniy harakatga va mashqlarni bajarishga tayyorlashga qaratiladi. Mazmuni-saflanish elementlari, gimnastik qayta saflanishlar, qo'llar, oyoqlar, gavda bilan qo'shimcha harakatlar, yurish, yugurish, sakrash, umumrivojlantiruvchi mashqlar va raqs elementlari, o'yinlar.

Asosiy qismga qo'yiladigan talablar - darsning asosiy vazifalarini xal etish, yangi materialni o'rganish, o'tilgan materialni bajarishni takomillashtirish maqsadida takrorlash, o'quvchilar harakat, ko'nikma va malakalarini egallashlari, ularda tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Asosiy qismdagi mashqlar tayyorgarlik qismidagi mashqlarning izchil davomi bo'lishi lozim. Umumrivojlantiruvchi mashqlar bu yerda xam o'rtacha fiziologik samaraga erishish hamda boshqa mashq turlariga tayyorlash uchun qo'llaniladi. Buyumlar bilan bajariladigan va qad-qomatni shakllantiruvchi mashqlar darsga xususiy vazifani hal etish- bu harakat turlarini o'rganish uchun kiritiladi. O'quvchilarga har tomonlama ta'sir ko'rsatish va ular tomonidan ko'p miqdordagi harakatlarni egallashlari uchun darsning asosiy qismiga uchtdan to'rttagacha jismoniy mashq kiritiladi. O'quvchilardan harakatchanlikni talab qiluvchi (yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish va oshib o'tish) o'yinlar o'tkaziladi.

Xulosalar. Yakunlovchi qismning asosiy vazifalari - darsning asosiy qismidagi mashg'ulotlarda yuzaga kelgan taranglik va ko'zg'alishdan sekin-asta nisbatan hotirjam holatiga o'tkazish, darsni yakunlash, yutug' va kamchiliklarni ko'rsatish uyga vazifa berish, uyushgan xolda yangi faoliyatga o'tish. Ushbu dars mashg'ulotlari orqali

nogironligi bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya, sportga, eng asosiysi hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borishga muhim turtki bo'ladi.

FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5270-son farmoni 3- b.
2. M.X.Mirjamolov "Adaptiv jismoniy tarbiya va sport" O'quv qo'llanma Chirchiq- 2020.
3. R.S.Salamov, M.X.mirjamolov "Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi". O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent - 2014

ZAKI VALIDIYNING BUXORODAGI ILMIY SAFARI

Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroning xo'jaligi, jo'g'rofiyasi, tarixiga oid ma'lumotlar. Qozon universiteti tomonidan Ahmad Zaki Validiyning Turkistonga yuborilishi, Buxoroning Chorjo'y voqealaridan keyingi hayoti, Inqilobiy Qo'mita a'zolari, Buxoroning milliy askari va Turkiston milliy birligini tuzishdan iboratligi hamda o'g'li Irisning o'limi haqida fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Zaki Validiy, Buxoro, Turkiston, Markaziy Qo'mita, Inqilobiy Qo'mita, Usmon Xo'ja, Fayzulla Xo'jayev, Mirzo Abdulqodir Muhitdinov.

Boshqird xalqining yirik vakili Ahmad Zaki Validiy arab, fors, rus tillarini yaxshi bilgan, Sharq tarixi va adabiyotiga qiziqqan, rus sharqshunos olimlarining asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan. Shuning uchun, akademik V.V.Bartold Zaki Validiyning Sankt-Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti hamda o'zining tashabbusi bilan tuzilgan Xalqaro O'rta Osiyo tadqiq Komitetida faoliyat yuritishni taklif qilgan edi. Ayni bu voqealar Validiy Qozonga qaytib kelgandan keyin, professor Katanov uni Qozon universiteti tarix, arxeologiya va etnografiya jamiyati tomonidan tarixiy va etnografik tadqiqotlarni olib borish uchun Turkistonga yuborish to'g'risidagi tashabbus bo'yicha xabar bergan edi [1, 75-b]. Bu safarlarga chiqish "Qosimiya"dagi muallimlikka va imtihonlarga ta'sir qilsada, sayohatni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

1914-yilning mart oyiga qadar davom etgan sayohat davomida Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi qo'lyozma asarlarni, shaxsiy kishilarning qo'lida bo'lgan manbalarni izlagan. Mamlakat xo'jaligi, tarixi, jo'g'rofiyasiga oid bir talay vaqf qog'ozlarini ham, boshqa ba'zi bir diniy guruhlarining kirimlari yozilgan hujjatlarni, mol haqlarining o'zgarishini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni ham yig'gan.

Ahmad Zaki Validiy sayohati davomida Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoroda bir qancha yaqin do'stlar orttirgan. Bularning ko'pchiligi unga shu yildan e'tiboran, Turkiston madaniy hayotida va keyinroq Turkiston siyosiy hayotida ishtirok etishida foydalari tegdi va har biri bilan bo'lgan do'stligidan unutilmas shirin xotiralar qoldi. Shu orada Buxoro va Samarqandga kelgan vaqtida, asosan, u yerdagi ziyolilar, qo'lyozma sohiblari, tarix va arxeologiya, etnografiya muxlislari bilan ham uchrashgan edi [2, 37-b].

Validiy Turkistonga ikki marta ilmiy safarga borgan. Xususan, ikkinchisida Buxoroga kelgach, amirning bosh vakili Nasrulloh Qushbegiga uchrashdi. Chunki bu safar ko'proq Buxoro amirligida ishlashi kerak edi. 1914-yilning iyun oyida G'uzorga kelgach, u yerning valiysi, amirning amakisi bo'lgan Said Akram to'ra Zaki Validiyning hurmat bilan kutib oladi. Bu kishi hukmdor jiyani Amir Olimdan norozi edi. Said Akram

to'ra Zaki Validiyni o'z saroyida qolib, o'g'illariga muallimlik qilishini va rus tilini o'rgatishini taklif qilgan edi. Shu tufayli ham unga saroydagi barcha qo'lyozma va kitoblarni o'rganish uchun bergan. Buxoroda uchratgan muhim asarlaridan biri XVII asrda kasonlik Mahmud ibn Vali tomonidan juda puxta yozilgan jo'g'rofiya kitobi edi. Validiy saroyda bo'lgan vaqtida, uyg'ur tilida yozilgan "Tarix qonunlari" nomli kitob borligidan xabar topgan. Biroq bu paytda kitob amir huzurida saboq berilayotganligi uchun band edi. Shu tufayli ham Zaki Validiyning keyingi kelishida shu kitobni o'rganishni tavsiya qilishadi. Bundan tashqari yana Buxoro va Xurosonning o'n yettinchi asrdan keyingi tarixiga oid asarlarni topgan. Shularning biri, XVII asrda Buxoroda o'zbek shoiri Imomiy tomonidan yozilgan "Xonlar tarixi" yoki "Xonnoma" nomli burungi turk dostonlar majmuasi edi. O'sha asarning 1948-yilda Turkiyada yozilgan forscha nusxasi haqida, 1954-yilda Kembrijdagi sharqshunoslar kongresida Validiy ma'ruza qilgan va Gollandiyada nashr etilgan. [3, 38-39 b].

Zaki Validiy o'zining Shahobiddin Marjoni to'g'risidagi asarida qayd etishicha, o'sha davrlarda Buxoro madrasalarida 15 ga yaqin kutubxona mavjud bo'lib, ular amir Nasrulloh davrida butunlay yakson qilinib, e'tibordan chetda qolgan. Samarqandda Marjoniyning ustoz, 1849-yilda vafot etgan qozi Abu Said Samarqandiyning kutubxonasi o'z tarixiy mavzusiga ko'ra eng boy kutubxona hisoblangan. Uning qayd etishicha, ushbu kutubxonaning bir qismi samarqandlik sharqshunos V.L.Vyatkinning qo'liga o'tgan [4, 393-395 b].

O'sha vaqtdagi Chorjo'y voqealari tufayli, Zaki Validiy Buxorodagi To'ra Mirzo Abdulvohid ismli tanishining uyiga 1920-yilning 31-dekabrida keladi. Mirzo Abdulvohid Buxoroning tojikcha hamda turkcha asarlar yozgan ikki tilli ziyoli bir adibi va shoiridir. Ayni shu vaqtda Buxoroda hukumat tuzilayotgan edi. Lekin u bir necha oydan keyingina shakllandi. Inqilobiy Qo'mita a'zolari deyilganlarning bir qismi Markaziy Qo'mita tashkil etib, unga Mirzo Abdulqodir rais edi. Ikkinchi qismi Ijroiya Qo'mita deyilib, unga Fayzulla Xo'jayev rais bo'ldi. Maorif noziri -Orif Yo'ldosh, moliya noziri-Usmon Xo'ja, harbiy nozir- Abdulhamid Orif, tashqi ishlar noziri-Hoshim Shoyiq, ichki ishlar noziri-Muyinjon, adliya noziri- Mirza Abdurahim, bir oz vaqtdan keyin esa Usmon Xo'ja Markaziy Qo'mitaning raisi bo'ladi. Usmon Xo'ja O'shdan Otaxo'ja ismli xo'jalar avlodidan chiqqan bir savdogarning o'g'li bo'lib, Buxoroda madrasada tahsil olganidan keyin, 1910-yilda Istanbulga kelib, u yerda Buxoro yoshlari uchun o'quv-tarbiya yurti tashkil qilgan. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda Qrimdagi G'aspirali maktabi kabi usuli jadid maktabi ochgan, gazetalar chiqargan edi. Fayzulla Xo'jayev kabi Usmon Xo'ja ham inqilobiy voqealar ichida yuruvchilardan edi.

Fayzulla Xo'jayev esa buxorolik Qosim Shayx degan xo'jalar avlodidan chiqqan millioner bir oiladan edi. Mustaqil tarzda ruschani o'rgangan. O'z vaqtida savdo ishlari bilan Olmoniyaga ham borgan, u yerda biroz ruschani o'rgangan edi. Mirzo Abdulqodir Muhitdinov esa davlat xizmatchilari oilasidan, shuning uchun o'z ismiga "mirzo"

qo'shimchasini qo'shgan. Ehtimol, bu arboblarning orasida eng ziyolisi shu kishi bo'lgandir. Buxoro jadidchilarining hammasi ham Buxoro amirini yiqitish yo'lida ruslar bilan hamkorlikda bo'lganlar. Lekin ular ruslarning bosqiniga, cheksiz hukmronliklariga qarshi turdilar [5, 103-b].

Zaki Validiyning jadidlarning uylariga borib yig'ilishib o'tirishidan asosiy vazifasi-qulatilgan amirga qarshi kurashni davom ettirish niqobi ostida Buxoroning milliy askarini tuzish, Xivadan, Turkmaniston, Qozog'istondan vakillar chaqirib, Turkiston milliy birligini tuzishdan iborat edi. Ishga tayyorgarlik tariqasida Boshqirdiston, Qozog'istonning hammayog'iga, G'uljadagi yaponlarga, Farg'onadagi bosmachilarning boshliqlariga Validiy o'z odamlarini yuborgan, shuningdek, qozoq ziyolilari ham birin-ketin yig'ila boshlagan. Bu paytda qozoqlar bilan o'zbeklarning maslahati uzoq davom etdi. Nihoyat, maslahatlar oqibatida O'zbekistonda sotsialistik bo'lmagan va dinga tayanuvchi jadidlar firqasi, sotsialistik "Erk" partiyasi, qozoqlarning "Alash Urda firqasi"dan iborat uch partiya birlashib, yetti banddan iborat Ahmad Zaki Validiy tayyorlab bergan "Umum platform"ni qabul etdi. Bu bandlar mohiyati quyidagilardan iborat edi.

- 1) Milliy mustaqillik
- 2) Demokratik jumhuriyat
- 3) Milliy askarlik (armiya)
- 4) Iqtisodiy idora, temiryo'llar qurish, kanallar qazish, Turkistonning asl mustaqilligi manfaatlariga mos tushmog'i lozim
- 5) Maorifni bugungi kun kamolotiga ko'tarish hamda Yevropa madaniyatiga Rossiya vositachilgisiz ham jalb qilish choralarini qidirish
- 6) Maktablar va mamlakatning tabiiy boyligidan foydalanish, umuman milliy masalalarni mamlakatda yashayotgan millatlarning soniga qarab hal qilish
- 7) Dinga to'la hurriyat berib, din bilan dunyo kishilarini aralashtirmaslik.

Shunday qilib, mamlakatda biri liberal, ikkinchisi sotsialist bo'lgan ikki partiya tartiboti tuzilib, umumiy dastur asosida ularni birlashtiruvchi boshqaruv mezonini qabul qilindi. Bunday qaror hammaga ma'qul tushdi. Bu vaqtda, Validiyning o'g'li Iris bilan xotini Nafisa Xivada edi. Ular ham Validiydan so'ng Buxoroga kelishadi. Shu yili Buxoro atrofida bezgak kasalligi keng tarqaldi. Bu yuqumli kasallik tufayli Zaki Validiy ham o'g'lidan ajraladi. O'g'lini Abdullaxon davrida yashab, 1588-yilda vafot etgan shoir Mushfiqiy maqbarasiga dafn etishgan. Bu qadimiy qabristonda marhumlarni eski mozorlarni ochib joylashtirar edilar. Qabrtoshda Mushfiqiyning "sening qayg'uyingdan ko'nglimiz zor yig'lamoqda, go'yo yo'qolding-u, yana topiladigandeksan, yuzimizni xasratimizdan oqqan qonli yosh bilan yuvmoqdamiz" degan ma'nodagi satrlarni bitishni Ahmad Zaki Validiy buyurgan edi. O'sha vaqtda, Turkistonda shifokor yoki hamshira topib bo'lmadi. Validiyning buxorolik do'sti Nazar To'qsobaning topib kelmagan dori-

darmoni qolmadi, lekin o'g'lini o'lim changalidan saqlab qololmadi. Ahmad Zaki Validiyning bu payt eng og'ir kunlaridan biri edi.

Shunday qilib, Ahmad Zaki Validiy Buxoroga qilgan sayohati davomida og'ir kunlar bilan birga yaxshi kunlarni ham boshidan o'tqizdi. Xususan, bu sayohat davomida Temuriylar tarixiga oid bo'lgan 40 dan ortiq asar va maqolalarni tahlil qilib chiqqanligi bunga yorqin misoldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов М., А.Зоҳидий, А.З.Валидий Тугоннинг Туркистонга илмий сафари (1913-1914-йиллар) -Тошкент. Фан. 1997. 75 б.
- 2.Абдурахмонов М. Научная деятельность А.З.Валидова в Туркестане-Ташкент. “Фан”, 2004. 37 с.
- 3.Ахмад Заки Валидий Тугон. “Хотиралар”. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Тошкент-“Истикбол нури”. 2014. 38-39 б.
- 4.Валиди А.З. “Диван” Махтумкули ...// Шуро. Оренбург.1913. 393-395 б.
- 5.Ахмад Заки Валидий Тугон. “Бўлингани бўри ер”. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан. Тошкент-“Адолат”. 1997.103-б.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA XALQARO STANDARTLASHTIRISH TLABLARI

Djumaev Mamanazar Irgashevich

p.f.n. professor Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ta'limni takomillashtirish va modernizatsiyalash ta'limd ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishva ularga tenglashish uchun xalqaro standartlashtirish tarixi va taraqqiyotiga va jarayonli yondashuv ta'lim tashkilotining siyosati, maqsadlari va strategik rejalariga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish mazmuni haqda ma'lumot beramiz.*

Kalit so'zlar. *Ta'lim, sifat, tenglashish, samaradaorlik, xalqaro standartlashtirish, ahamiyat va mohiyat.*

Аннотация. *В целях совершенствования и модернизации образования, изучения опыта передовых стран в образовании и выравнивания с ними, приводится информация об истории и развитии международной стандартизации и содержании процессного подхода к достижению желаемых результатов в соответствии с политикой, целями и стратегическими планами образовательной организации.*

Ключевые слова. *Образование, качество, равенство, эффективность, международная стандартизация, важность и сущность.* THE ESSENCE OF

Abstract. *In order to improve and modernize education, study the experience of advanced countries in education and equalize with them, we provide information on the history and development of international standardization and the content of a process approach to achieving the desired results in accordance with the policy, goals and strategic plans of the educational organization.*

Keywords. *Education, quality, equality, efficiency, international standardization, importance and essence.*

KIRISH

Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat o'quvchi hamda o'qituvchi ishtirokidagi o'quv-bilish faoliyati asosining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishda o'quvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi sub'ekt sifatidagi roli bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim taxnologiyasi talablariga ko'ra o'quv ta'lim jarayonining etakchi sub'ekti, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

ISOning qisqacha tarixi. ISO — International Organization for Standardization (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) degan ma'noni anglatadi. Bu milliy standartlashtirish tashkilotlarining butun dunyo federatsiyasi bo'lgan tashkilot. Yunon tilidan tarjima qilingan “ΙΣΟΣ” (ISOS) so'zi “teng” degan ma'noni anglatadi, shuning uchun Xalqaro standartlashtirish tashkiloti dunyoning barcha tillari- da ISO (ISO) qisqa nomiga ega

Xalqaro standartlashtirish bo'yicha birinchi urinishlar 1906 yilda, ishlab

chiqarilgan mahsulotlar sifatini birlashtirish uchun Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi tashkil etilganda amalga oshirildi. Ushbu xalqaro mahsulotni standartlashtirish borasida tashlangan qadam 1946 yilda Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) deb nomlangan milliy standartlashtirish birlashmalari xalqaro federatsiyasini yaratishga sabab bo'ldi. ISO 25 mamlakatdan kelgan delegatlar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi mahsulot va xizmatlarning xavfsizligi, ishonchliligi va sifatini ta'minlash uchun standartlarni ishlab chiqishdir. Ushbu standartlar butun dunyo bo'ylab o'z sohalaridagi mutaxassislardan iborat texnik qo'mitalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu mustaqil va nodavlat xalqaro tashkilot 162 ta milliy standartlashtirish tashkilotlarini o'z ichiga oladi. ISO Markaziy Kotibiyati hozirda Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan.

ISO standartlari nima?. 1987 yilda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO 9000 seriyasi nomi bilan ataluvchi bir qator sifat standartlarini ishlab chiqdi. Ular barcha turdagi va o'lchamdagi tashkilotlarga korxonalarda yuqori sifat madaniyatini targ'ib qiluvchi samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish va qo'llab-quvvatlashga yordam berish uchun joriy qilingan.

ISO standarti — bu materiallar, mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlardan foydalanish maqsadlariga mos bo'lgan talablar, qoidalar yoki xususiyatlarni belgilaydigan hujjat.

Biroq faqat 1987 yilda ISO sifat boshqaruvi uchun ISO 9001 standartini nashr etgandan so'ng tan olindi va bugungi kunda keng qo'llanilmoqda. Hozirgi vaqtgacha ISO 22 000 dan ortiq xalqaro standartlarni ishlab chiqqan, ulardan sifat boshqaruvi uchun ISO 9001, sinov va kalibrlash laboratoriyalari uchun ISO/IEC 17025 va axborot xavfsizligini boshqarish uchun ISO/IEC 27001 qo'llaniladigan uchta eng mashhur standartlardir[1].

Bugungi kunda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlari ISO a'zosi bo'lib, ularning har biri milliy standartlashtirish tashkilotlari orqali ushbu tashkilot bilan bog'lanadi. Tashkilotga tamal toshi ishlab chiqarishning jadal o'sishi va natijada, yirik sanoat mamlakatlari o'rtasida tovar ayir boshlashning kuchli rivojlanishi davrida qo'yildi. Standartlarning joriy etilishi mahsulotlarning arzonlashishiga, ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga, chiqindilarning kamayishiga, turli mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning mosligini oshirishga, ulardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishni soddalashtirishga olib keldi.

ISO xalqaro standartlarining ahamiyati. Xalqaro standartlar texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi. Ular tovarlar va xizmatlarning texnik xususiyatlarini uyg'unlashtirishga, sanoatni yanada samarali qilishga va xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Xalqaro standartlarga muvofiqligi iste'molchilarni mahsulotlar ishonchli, samarali va ekologik toza ekanligiga ishonitirishga yordam beradi.

Xalqaro standartlar strategik vositalar va kompaniyalarga bugungi kunning eng dolzarb biznes muammolarini hal qilishda yordam beradigan ko'rsatmalardir. Ular biznes operatsiyalarini iloji boricha samarali qiladi, mahsuldorlikni oshiradi va kompaniyalarning yangi bozorlarga kirish imkoniyatini oshiradi.

Uning foydalilik jihatlariga quyidagilar kiradi:

Xarajatlarni tejash — xalqaro standartlar operatsiyalarni optimallashtiradi va shu orqali yakuniy natijani yaxshilaydi.

Mijozlarning qoniqish darajasini kengaytirish — standartlar sifatni yaxshilash, mijozlar ehtiyojini qondirish va sotish hajmini oshirish imkonini beradi.

Yangi bozorlarga kirish — standartlar savdo to'siqlarini yengib o'tishga va jahon bozorlariga kirishga yordam beradi.

Bozor ulushini oshirish — standartlar mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga ko'maklashadi.

Ekologik manfaatlar — standartlar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

Bozor ulushini oshirish — standartlar mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga ko'maklashadi.

Ekologik manfaatlar — standartlar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Raqamlardagi imtiyozlar. Ta'lim sohasidagi ISO standartlari. Standartlarning Buyuk Britaniya iqtisodiyotidagi yillik hissasi — 2,5 milliard funt sterling ni baholash layoqatiga ega hisoblanadilar (bu mulohaza orqali biz keng tarqalgan “sifat” ta'rifidagi “foydalanish uchun yaroqlilik” tushunchasini nazarda tutmoqdamiz). Ushbu terminologik muammoni hal qilish uchun ISO ishlab chiqarishdan tashqari, sohalardagi ishtirokchilarga seminar yig'ilishida birga qat-nashish imkonini beruvchi mexanizmni yaratdi. Bu kishilar milliy delegatsiya orqali o'tishi kerak bo'lgan texnik qo'mita a'zolaridan farqli ravishda istalgan joydan kelishi mumkin. Seminarining maqsadi ma'lum bir sohada muayyan masalalar bo'yicha kelishilgan hujjat ishlab chiqarishdir. Ushbu hujjat Xalqaro seminar bitimi (International Workshop Agreement — IWA) deb nomlanadi va ta'lim yo'nalishida u IWA 2 deb ataladi. IWA 2 bilan noaniqlikni kamaytirish uchun ta'lim terminologiyalarida kelishuvga erishildi. Masalan, ta'lim mijosi sanoat kabi boshqa manfaatdor tomonlar bilan adashtirmasligi uchun “o'rganuvchi” sifati-da belgilandi. “Mahsulot” yoki “mahsulot dizayni” kabi boshqa atamalar mos ravishda “kurslar” yoki “o'quv dasturlari dizayni” kabi ta'limdagi tegishli atamalar bilan almashtirildi. Ta'kidlash joizki, IWAning maksimal muddati olti yilni tashkil qiladi, shundan so'ng u ISOning yangi namunadagi standartlariga o'tkazilishi yoki bekor qilinishi kerak bo'ladi. IWA 2 o'zining butun umri davomida ta'lim sohasi uchun ishlab chiqilgan ISO 9001:2000 standarti talqiniga hamrohlik qilish maqsadida 2003 va 2007 versiyalari bilan ishlab chiqilgan. ISO 9001:2008 nashr etilganida, IWA 2:2007 amalda foydalanish uchun yaroqsiz edi. IWA 2:2007 endi olib tashlangan va uning yangiroq namunasi mavjud emas. Bu esa ta'lim tashkilotlarida sifat boshqaruvini ta'minlash borasidagi standartlarni belgilashda ta'lim sohasiga oid maxsus atamalarni qo'llashni qiyinlashtiradi[1].

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ISO 9001:2015 standarti sifat boshqaruvi tizimlariga bo'lgan talablarni belgilab berdi. Mazkur standart har qanday ishlab chiqarish korxonasidan tortib turli xizmatlarni ko'rsatuvchi firma va kompaniyalargacha bo'lgan tashkilotlarning sifat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan talablarni nazarda tutadi. Natijada, ta'lim tashkilotlari ham ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ekt sifatida ushbu standartlarni o'z boshqaruv tizimlariga tatbiq etishga harakat qilib keldi. Biroq ta'lim sohasi sanoatdan farqli xususiyatlarga ega bo'lganligi

bois ISO ta'lim tashkilotlari uchun maxsus standartni ishlab chiqishga majbur bo'ldi
ISO 21001:2018 "Ta'lim tashkilotlari — Ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimlari
— Foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga ega talablar"

xalqaro standarti 2018 yil may oyida chop etilgan¹. Bu ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimiga oid xalqaro standartning birinchi nashridir. ISO 21001 o'quvchilarning haqiqiy ta'lim ehtiyojlari va talablariga, tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga va natijalarni baholashga qaratilgan.

